

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**



**FILOLOGIYA FAKULTETI
O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**
5111200 - o'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lif yo'nalishi
4- "B" kurs talabasi

Reyimbarganova Sabohat Ulug'bek qizining

BITIRUV MALAKAVIY ISHI
**Mavzu: «9-sinfda Abdulla Oripov hayoti va ijodini
o'rgatish»**

Talaba:	S. Reyimbarganova.
lmiy rahbar:	f.f.n.,dots. O.Duysenbaev.
	S.Bekchanova
Kafedra mudiri:	f.f.n.,dots.S.Matyakupov

O'zbek tili va O'zbek adabiyoti kafedralari qo'shma yig'ilishining 2019- yil 10 - maydagi 4 - bayonnomasi bilan himoyaga tavsija qilindi.

NUKUS – 2019

Davlat attestatsiya komissiyasi

QARORI:

5111200-o'zbek tili adabiyoti bakalavr ta'lim yo'naliishi 4-«B» kurs Reyimbarganova Sabohatning «9-sinfda Abdulla Oripov hayoti va ijodini o'rgatish» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «____» ball («____%») qo'yildi.

«____» _____ 2019- yil

DAK kotibasi:

Y.Madrimova

M U N D A R I J A

KIRISH.....	4
I BOB. ABDULLA ORIPOV –O‘ZBEK SHE’RIYATINING ZABARDAST VAKILI	
1.1. Abdulla Oripovning she’rlarini yangicha usullar orqali o‘rgatish.....	9
1.2. Abdulla Oripov lirikasining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgatish.....	18
II BOB. ADABIYOT DARSLARIDA ABDULLA ORIPOV HAYOTI VA ADABIY MEROSINI O‘RGATISH USULLARI	
2.1. Abdulla Oripov hayoti va faoliyatini o‘rgatishning samarador usullari.....	32
2.2. Abdulla Oripovning “Sohibqiron” asarini o‘rgatishning o‘ziga xosligi...	40
III BOB. TA’LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARIDA MAVZUNING BERILISHI	
3.1. Mavzuni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha metodik tavsiyalar.....	50
3.2. Dars ishlanma.	52.
XULOSA.....	58
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	63

K I R I SH

Mavzuning dolzarbliji. Mustaqillikdan keyin yuzaga kelgan ijtimoiy – siyosiy, ma’naviy – ma’rifiy, madaniy, ilmiy, ta’limiy muhit, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunning qabul qilinishi va tarixiy ahamiyati, “Yurtboshimiz tomonidan ilm-fanga alohida e’tibor berilayotganligi tufayli ta’lim sohasida keng imkoniyatlar, qulay sharoitlar yuzaga keldi. Yangi asr uchun taraqqiyot strategiyasini tanlashda inson uchun, uning imkoniyatlarini ochish uchun, ya’ni insonni rivojlantirishga mamlakatimizda alohida e’tibor berilmoqda.” Bu haqida fikr yuritganda, ayni paytda jamiyatimizda siyosiy faollik ortib bormoqda, barcha sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko‘zlagan maqsad “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyat kasb etishni ta’kidlash lozim.

Prezident Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqilgani va 2017 yildan buyon amalga tatbiq etilayotgani bu borada alohida o‘rin tutadi. Erishilgan marralarni saqlab qolib, ta’lim tizimini isloh qilish va uni zamon talablariga moslash yo‘lida maktab va o‘quv yurtlari zamonaviy jihozlar, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari bilan ta’milanmoqda, ularda 11-yillik qaytadan joriy qilindi o‘qitish mazmuni tubdan yaxshilanmoqda. Mazkur davrda darsliklarning yangi avlodи tushunchasi hayotiylik kasb etdi. Har bir sinf uchun darsliklarning yangi avlodи shakllantirildi.

Bu davrda yaratilgan dastur va darsliklarda asosiy maqsad milliy qadriyatlarimiz asosi sanalmish adabiyotimizning beba ho merosi, an’analari bilan tanish bo‘lgan o‘quvchilarining bilimlarini sistemali yo‘sinda umumlashtirish va egallangan ko‘nikmalarini mustahkamlashga qaratila boshlandi. Binobarin, adabiyot fanidan mavzularni chuqur anglash ehtiyojini to‘ldirish, o‘quvchilar to‘la anglab etmagan yoki tushunilishi qiyinchilik tug‘diradigan mavzularni kengroq izohlash va shu orqali yetarli nutqiy malakani shakllantirish, adabiy-badiiy matnlar ustida ishslash, ko‘nikmalarini o‘stirish kabi vazifalarni bajarish nazarda tutilgan.

Kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, darslik va dasturni tuzishda ta'lim bosqichida chuqur o'zlashtirilmagan bilimlarni singdirishga e'tibor berilgan. Ular mazmunida o'quvchilarning muayyan mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritishlariga, o'z ustilarida ko'proq ishlashlariga, bilim egallashning tipiklashtirishdan umumlashtirishga qarab borish, dalillarni sharhlash va asoslash yo'sinlariga asosiy diqqat qaratilgan. Amaldagi dasturlar bo'yicha mavzular, birinchidan, umumiyo'rta maktabning sinovdan o'tgan yangi dasturlari negizida yaratilganligi, ikkinchidan, o'zlashtirilayotgan bilimlarning amaliy tatbiqi bosh mezon sifatida tanlanganligi hamda tarixiylik, izchillik, milliylik va zamonaviylik tamoyillariga to'la bo'ysundirilganligi bilan ajralib turadi. SHu bilan bir qatorda, doimiy taraqqiyot yaratilgan o'quv adabiyotlarini ilmiy-metodik tomondan kuzatishni ham talab etadiki, bu tabiiy jarayondir. Xuddi shu jihat muayyan ijodkor asarlarini o'rganishga ham aloqador. Mazkur holat ishimiz dolzarb mavzulardan biriga bag'ishlanganligini ko'rsatadi, albatta.

Adib asarlarini o'rganishga yangilangan badiiy tafakkur asosida yondashish; uning asarlarini o'rganish orqali o'quvchilarda ma'naviy va mafkuraviy immunitetlarni hosil qilish; adib mahorati, iste'dodini tadqiq qilish vositasida o'quvchilarning fikrlash quvvatini oshirish, ona tilimiz qadrini ulug'lash, tildan foydalinish madaniyatini yanada rivojlantirish; o'quvchilarning adabiy tur va janrlar haqidagi ilmiy-nazariy bilimlarini adib asarlari misolida yanada yorqinroq aks ettirish; adib asarlarini zamonaviy axborot vositalari va yangilangan pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatish ko'lamenti kengaytirib, adabiy ta'lim maqsad va vazifalarining ro'yobini ta'minlash kabi ezgu maqsadlar mavzuyimizning, ilmiy ishimizning dolzarbligini ham belgilab beradi.

Muammoning o'rganilganlik darjasи. Abdulla Oripovi jodi haqidagi ilk maqolalar matbuotda e'lon qilinganiga yarim asrdan oshganini inobatga olsak hozirgacha bu ummondan yig'ib olingan javohirot xazinasining hisobiga yetish mushkul ekanligi ayon bo'ladi-qoladi. Shundan buyon o'tgan davr mobaynida biron bir o'zbek adabiyotshunosi yo'qli, o'zining ilmiy-tadqiqot ishlarida, hech qursa, bir marta Abdulla Oripov nomini tilga olmagan, shoir ijodiga xos yangi bir

fazilatni kashf etmagan bo‘lsin! Shunga qaramay, bu san’atkor ijodining ochilmagan qatlamlari juda serob.

Adabiy ta’limda yozuvchi ijodini o‘rganish, tadqiq qilish hamisha dolzarb masalardan biri sanalgan. Ijodkorning o‘ziga xos uslubini, timsol yaratish mahorati, so‘zga bo‘lgan e’tiborini kuzatish, tahlil etish orqali badiiy asarni idrok qilish, uning g‘oya va mazmunini to‘la tushunish, ayni paytda, satrlarga singdirilgan ma’no sirlaridan voqif bo‘lish imkoniyati yanada kengayadi. Shunday bo‘lsa-da, adib ijodini yangilangan pedagogik tafakkur asosida o‘rganish ishlari hali o‘z yakunini topgan emas. Tadqiqot ishimizning aynan shu mavzuga qaratilishi bu sohada yechimini kutayotgan masalalarga qaratilgani bilan xarakterlanadi.

Abdulla Oripov ijodini adabiy ta’limda o‘rgatish bugungi kungacha asarlarni to‘liq tahlil qilish asosiy maqsad qilib belgilanmagan. Ushbu bitiruv malakaviy ishimiz esa yuqorida ta`kidlangan jihatlar bilan tahlil qilishga qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Ajiniyoz nomidagi NDPI O‘zbek adabiyoti kafedrasining “2018-2019 yillarga mo‘ljallangan BMI mavzulari” rejasi asosida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi. Abdulla Oripov she’rlari birinchi galda shoirning o‘zi uchun eng ardoqli, dil qa’ridan sizib chiqqan shaxsiy kechinma-tuyg‘ular hosilasidir. Ayni paytda ana shu shaxsiy kechinmalar ko‘pchilik uchun ham qadirli va tushunarlidir. Abdulla Oripov she’rlari qog‘ozda qolib ketadigan satrlar emas, ular tillardan dillarga ko‘chib, muqim joy olgan yetuk she’riyatdir. Darhaqiqat, o‘zbek xalqi azal-azaldan badiiy adabiyotdan o‘ziga ma’naviy ozuqa olgan, ma’naviy hordiq chiqargan. Adabiy ta’lim asosini adabiyot o‘qitishning maqsad va vazifalari hamda uning mazmuni tushunchalari tashkil etadi. Komil shaxsni shakllantirish adabiyot o‘qitishning bosh maqsadi. Bu umumiy tushuncha bo‘lib, istiqbolni belgilaydi. Oddiy o‘quvchidan kitobxon o‘quvchini tayyorlash, bolalarni badiiy so‘zdan ta’sirlanadigan, uning josibasini his etadigan, haqiqiy badiiy asarni taniydigan, o‘qigan badiiy asarini tahlil eta biladigan va undan o‘ziga xulosa

chiqarishga qobil, o‘z qarashlarini og‘zaki va yozma ravon ifoda eta oladigan, badiiy asar o‘qishni o‘zining birinchi hayotiy ehtiyojiga aylantirgan o‘quvchi shaxsini shakllantirish bosh vazifa sifatida turadi. Biz shundan kelib chiqqan holda, bitiruv malakaviy ishimizda Abdulla Oripov hayoti va ijodini zamonaviy usullarda o‘rgatishning o‘ziga xos usullarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Tadqiqotning vazifalari. Biz bitiruv malakaviy ishimizning oldiga qo‘ygan maqsadlarimizdan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni bajarishni ko‘zda tutdik:

- Abdulla Oripov hayoti va ijodini zamonaviy usullarda o‘rgatishning o‘ziga xos usullari va ularni o‘rganish;
- Abdulla Oripovning «Genetika», «Bahor kunlarida» she’rlarini o‘rgatishning o‘ziga xosligi tahlilga olindi;
- Abdulla Oripov she’riyati va «Kuz manzaralari» she’rlarini o‘ziga xosligi haqida fikr bildirish;
- Abdulla Oripovning “Sohibqiron” asarini o‘rgatish to‘g‘risida fikrlar tahlili;

Tadqiqotning ob’ekti. 9-sinf adabiyot darsligi. Abdulla Oripovning to‘plamlari.

Tadqiqotning predmeti. Abdulla Oripov hayoti va ijodini o‘rgatishning o‘ziga xos usullari haqida fikr bildirish.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari. Ishda O‘zbekiston respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ma’naviyat, ma’rifat va umumbashariy qadriyatlar to‘g‘risidagi fikr-mulohazalari, milliy madaniyatning rivojlanish tarixi, taraqqiy etish yo‘llari haqidagi qarashlari, hamda badiiy adabiyotdagi milliy qadriyatlarga oid qilingan tadqiqotlar asos qilib olindi. Bitiruv malakaviy ishimizda M.Qo‘sishjonov, N.Karimov, S.Mirvaliyev, U.Normatov, A.Rasulov, D.Quronov, T.Boboyev, B.Karimov, H.Umurov, S.Mamajonov,, A.Akbarov,O. Sharafiddinov kabi adabiyotshunoslarning fikr mulohazalariga tayandik va ularning adabiyotshunoslikka doir qarashlari ishimizga ilmiy- nazariy asos bo‘lib xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida analitik va qiyosiy – tipologik tadqiq usulidan foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi. Ishda o‘zbek adabiyotshunosligida mavjud qarashlar asosida badiiy adabiyotdagi milliy qadriyatlar o‘rganildi.Bunda:

- Abdulla Oripov hayoti va ijodini zamonaviy usullarda o‘rgatishning o‘ziga xos usullari tahlil qilindi;
- Abdulla Oripovning «Genetika», «Bahor kunlarida» she’rlarini o‘rgatishning o‘ziga xosligi tahlilga olindi;
- Abdulla Oripov she’riyati va «Kuz manzaralari» she’rlarini o‘ziga xos jihatlari aniqlandi;
- Abdulla Oripovning “Sohibqiron” asarini o‘rgatish to‘g‘risida fikrlar tahlilga olindi;

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishning asosiy natijalari va muhim xulosalaridan o‘zbek adabiyoti tarixi, o‘zbek adabiyotini o‘qitish o‘quv qo‘llanmalar, turli metodik tavsiyanomalar yaratishda, mazkur tadqiqotdan o‘zbek adabiyotini o‘qitishda, oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlari talabalari amaliyot jarayonida, zamonaviy texnologiyalar bo‘yicha maxsus kurslar o‘qishda, nazariy seminarlar mashg‘ulotlarini tashkil etishda ham manba sifatida xizmat qilishi mumkin

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. BMI Ajiniyoz nomidagi NDPI O‘zbek adabiyoti kafedrasining qo‘shma yig‘ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya qilingan.Tadqiqot natijalari bo‘yicha Nukus shahar 38-maktab pedagogik kengashida ma’ruza qilindi va ochiq dars o‘tkazildi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishimiz kirish, uchta bob, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati kabi qismlaridan tashkil topgan. Har uchta bobdan olingan umumiylar xulosalar ishimizning xulosa qismida o‘z ifodasini topadi. Bitiruv malakaviy ishini yozish davomida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati to‘liq keltiriladi.

I BOB. ABDULLA ORIPOV –O‘ZBEK SHE’RIYATINING ZABARDAST VAKILI

1.1. Abdulla Oripovning she’rlarini yangicha usullar orqali o‘rgatish

Mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy sohada amalga oshirilayotgan keng islohotlar Vatan taqdiri, xalq ravnaqi, mustaqil yurtning kelajakdagি boshqaruvchilar-yangi avlod tarbiyasiga qaratilmoxda. Mustaqillikka erishgan birinchi kunimizdanoq, umuminsoniy va o‘zbekona qadriyatlarni har tomonlama tiklash, ularga chuqurroq nazar tashlash uchun zamin yaratildi. Mustaqil Vatanimizga har tomonlama yetuk, mukammal, axloqiy pok, yuksak ma’naviy hislatlarga ega, iymon-e’tiqodi butun, o‘z xalqi, o‘z ona-Vataniga fidoiy, barkamol insonlarni tarbiyalash davlat siyosatida ustuvor masalalardan biri sifatida qarala boshladi.

Tarbiyada xalqning milliy va ma’naviy qadriyatlariga suyanish, ular orqali 9-sinf o‘quvchilarida milliy qadriyatlarni shakllantirish-o‘ta dolzarb masalalardan biridir. Chunki, bugungi kunda mafkuraviy poligonlarda yoshlar ongi va qalbi uchun kurash keskinlashgan bir paytda o‘quvchilarni iloji boricha, maktab yoshidanoq vatanparvar, xalqparvar, fidoiy, Vatani, xalqi uchun jonini ayamaydigan matonatli qilib o‘stirish zarur. 9-sinf adabiyot darslarida Abdulla Oripovning «Sarob», «Bahor», «Genetika», «Bahor kunlarida», «Kuz manzaralari», «Holat», «Ketganlar yodi bu» va , “Sohibqiron” asarlarini o‘rganish nazarda tutiladi.

IX sinf dasturidan o‘rin olgan xalq og‘zaki ijodi, yozuvchilar ijodi tarixiy – adabiy jarayonning uzviy sohasi sifatida o‘rganiladi; har bir yozuvchining ijodi qaysi traditsiyada rivojlangani, adabiyotning umumiyl rivojiga qanday yangilik qo‘shgani aniqlanadi. IX sinf o‘quvchilari asarning g‘oyaviy – estetik evolyutsiyasini, siyosiy va adabiy yo‘nalishlarga munosabatini aniqlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Mana shularga ko‘ra, IX sinfdagi dars IV – VII sinfdagiga nisbatan boshqacha xarakterda bo‘ladi, asarni analiz qilish murakkablashadi, o‘quvchilar qiyinchilikni his etadilar. IX sinfda o‘quvchilar badiiy asarlarni sistemali o‘rganib, ular haqida fikr yurita boshlaydilar, asarni tahlil qilish bilan har bir obrazda oldinga surilgan g‘oyani, fikrni bilib oladilar. Ularda

faqat obrazga emas, balki asar muallifiga, uning fikr – o‘ylarini bilishga qiziqish ortib boradi, natijada uni ijodkor shaxs, talant egasi sifatida his etadilar. IX sinf o‘quvchilarida yozuvchini ana shu zaylda tasavvur etish birinchi kun mashg‘ulotdan boshlanadi.

Umumta’lim maktablarida fanlarning ko‘pchiligi bevosita bolaning tafakkurini rivojlantirish, uning bilimini oshirishga yo‘naltirilgan. Ma’lum qismi esa bolaga kasb-hunar o‘rgatish yo‘lida xizmat qiladi. Bu fanlar orasida faqat adabiyotgina bolaning ko‘ngli, uning ruhiyati va ma’naviyatini shakllantirishga qaratilgan. Ilg‘or fikrli kishilarga xos sifatlar bevosita ruhiyat bilan bog‘liq bo‘lgani uchun ham ma’naviyat tarbiyasi mamlakat miqyosida muammoga aylangan. Sog‘lom ma’naviyatni, ruhiy olamni tarbiyalash, ko‘proq maktab adabiy ta’limi zimmasiga tushadi, chunki adabiyotning asosiy materiali – inson. Adabiyot darslarida inson shaxsi, tuyg‘ulari, kechinmalari, hayajonlari, iztiroblari, xususiyatlari o‘rganiladi va tahlil qilinadi. Adabiy ta’limda o‘quvchining butun e’tibori o‘rganishga qaratiladi.

Adabiy ta’limning bugungi metodikasida maktabda o‘rganiladigan adabiyot fan emas, san’at, ijod hisoblanadi. Adabiyotni chinakam o‘zlashtirish badiiy so‘z go‘zalligini his qilish va undan zavqlanishsiz aslo mumkin emas. San’atning har qanday turidan zavq olish uchun badiiy bilimdonlik zarur, albatta.

Adabiy ta’limning inson shaxsi va ma’naviy kamoloti yo‘lidagi samaradorligini ta’minalash uchun o‘quvchilar faolligini, uning individual rivojlanish darajasi va yosh xususiyatlarini ham inobatga olish zarur. Darsda o‘quvchilar bilan ishlashda ularning shaxsi, qobiliyati, imkoniyati, qiziqishlari, aqliy va ruhiy faollik darajasini puxta bilish kerak.

Keyingi yillarda yaratilgan ilmiy-metodik adabiyotlarda ta’kidlanishicha, “o‘qituvchidan boshlang‘ich sinfda o‘tiladigan har bir darsda bolalarning ruhiy, jismoniy imkoniyatlarini inobatga olgan holda ularni mustaqil mulohaza yuritib, munosabat bildirishga undaydigan amaliy ishlarni bajarish talab qilinadi. 5-6-sinflarda o‘quvchining shu bosqichdagi intellektual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ish yuritish lozim bo‘ladi. Toki bola psixologik jihatdan ma’lum yosha

yetganda uning birorta imkoniyati bekorga ketmasin, ishtivoqi so‘nib qolmasin”.^{1*} Ko‘rinadiki, Abdulla Oripov ijodi o‘rta umumta’lim maktablarining 5 va 9 – sinflari hamda akademik litseylarda o‘rganilar ekan, bunda bolaning har tomonlama yetuk bo‘lib kamol topishida adib asarlarining ham o‘rni muhim hisoblanadi. Dasturda nazarda tutilgan masalalar:

5-sinfda

Abdulla Oripov. «O‘zbekiston» she’ri (2 soat). A. Oripov hayoti va ijodi haqida ma’lumot. «O‘zbekiston» qasidasida ona yurt o‘tmishining g‘oyat ta’sirli va millat tarixi bilan uyg‘un holda tasvirlanganligi. Asarda buyuk ajdodlarni ulug‘lashdagi samimiyat. Shoirning Vatanga bo‘lgan muhabbatining yorqin ifodalanishi. Qasidaning badiiy xususiyatlari.

O‘quvchilar sinfda va mustaqil o‘qishlari, yod olishlari lozim bo‘lgan asarlar: Abdulla Oripov. «O‘zbekiston» she’ri.

9-sinfda

Abdulla Oripov. «Sarob» («O‘ylarim»), «Bahor», «Genetika», «Bahor kunlarida», «Kuz manzaralari» she’rlari. “Sohibqiron” (5 soat). Abdulla Oripovning hayot va ijod yo‘li to‘g‘risida ma’lumot. A.Oripov – hozirgi o‘zbek she’riyatining zabardast vakili. Shoir lirkasining o‘ziga xos xususiyatlari. She’rlaridagi kuchli ehtiros, tabiiylik,fikriy teranlik, poetik mukammallik. Badiiy talqinning pishiqligi. She’riy intonatsiyaning betakrorligi, shiddatkor ohang bilan sokin, osoyishta, samimiy ruhning uyg‘unligi. Shakliy-uslubiy rang-baranglik.«Sarob» she’rida shoir hayot yo‘li, ijodiy maslagi, shaxs va jamiyat munosabatlari masalalarining badiiy-lirik talqini. «Bahor kunlarida»,«Kuz manzaralari» she’rlarida tabiatga munosabat orqali lirik qahramon kayfiyatları, o‘ylarining, «Holat» she’rida esa tabiiylikning o‘ziga xos yo‘sinda ifodalanishi. «Ketganlar yodi bu» she’rida shoir qalbi jilolarining namoyon bo‘lishi. «Genetika» she’rida avlod-ajdod munosabatlarining serbo‘yoq va ta’sirchan ifodalanishi. O‘quvchilar sinfda va mustaqil o‘qishlari, yod olishlari lozim bo‘lgan asarlar:

¹ Хусанбоева К. Адабий таълимда мустақил фикрлашга ўргатиш асослари. – Тошкент, 2003. – Б. 12.

“Odamlar”, “Bola edim...”, “Dorboz”, “Temir odam”, “Tilla balqcha”, “Onajon”, “Men anglab etgan falsafa”, “Genetika”, “Sen bahorni sog‘inmadingmi?”, “Men nechun sevaman O‘zbekistonni?”, “Munojot”ni tinglab...”, “Birinchi muhabbatim” she’rlari va “Sohibqiron” (besh pardali she’riy dramadan parcha).²

Umumta’lim maktablari uchun tuzilgan dasturda ko‘rsatilgan masalalarining darslar bo‘yicha rejalashtirilishi S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo‘chqorov,³ Sh.Rizaevlar tomonidan tuzilgan “O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma”da ham darsning borishi va o‘tiladigan masalalar alohida ko‘rsatilgan.*

Shoir hayoti va ijodini 5 va 9-sinfda o‘rganishga, metodik manbalarda ko‘rsatilganidek, nisbatan kam vaqt ajratilgan. Demak, mana shu qisqa fursatdan iloji boricha samarali foydalanish talab etiladi.

Taniqli metodist olimimiz, adabiyotshunos B. To‘xliev ta’kidlaganlaridek, “Bizning maktablarimizda badiiy adabiyot yaxshi insoniy fazilatlarni targ‘ib qilishga, urushni, zo‘ravonlikni qoralab, tinchlikni, xalqlarning osoyishta hayoti va o‘zaro do‘stligini ulug‘laydigan, xunuklikdan nafratlanib, go‘zallikni targ‘ib etadigan, o‘sib kelayotgan avlodga yuksak ma’naviy fazilatlarning shakllanishi va rivojlanishiga imkon beradigan xislatlari bilan e’tiborlidir”.

O‘qituvchi bu suhbat jarayonida yana bir jihatga e’tibor qaratishi, asar tili haqida ham to‘xtalib o‘tishi kerak bo‘ladi. Bunda darslik materiallari va boshqa manbalardan foydalanish mumkin. Tabiiyki, badiiy til, bir tomonidan, umumxalq tili va adabiy tilga tayanadigan, boshqa jihatdan esa ularning har ikkisidan farqlanib turadigan alohida san’at hodisasiidir. Badiiy tilning mavjudligi ijodkor shoir-yozuvchilar faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu ma’noda badiiy til o‘z zamirida milliy adabiyotimizning asrlar osha shakllanib kelgan an’analarini (an’anaviy sifatlashlar, ramz va majozlar, o‘xshatish va boshqalarni) saqlab

² Тўхлиев Б., Исаева Ш., Шермуродов Т. Адабиёт. Академик лицейнинг иккинчи босқич талabalari учун. – Тошкент, 2012. – Б. 423-457.

³ Абдуллоғиз Жалолов. Тарих сабоқлари ва мустақиллик истиқболлари. Мулокот. 1996, 5-сон. Б. 12.

* Аҳмедов С., Қосимов Б., Кўчкоров Р., Ризаев Ш. 5-синф. Ўқитувчилар учун методик кўлланма. – Тошкент: “Шарқ” нашиёр-матбаа аксиядорлик компанияси бош таҳририяти, 2007. – Б. 72.

qolgan. Ayni paytda bari bir iste'dodli ijodkor badiiy til imkoniyatlari doirasini kengaytirishi, bu tilning yanada joziba kashf etishini ta'minlashi mumkin. Bu jarayonda adabiy til qonun-qoidalaridan chekinishga, umumxalq tili boyliklariga dadil murojaat qilishga to'g'ri keladi. O'quvchilar bu narsaga kelgusi darslarda o'rganiladigan qator asarlar, jumladan, «Qisasi Rabg'uziy», Gulxaniyning «Zarbulmasal», Tog'ay Murodning «Yulduzlar mangu yonadi» asarlari mutolaasida yana bir bor guvoh bo'ladi.

Modomiki, adabiyot insonni, uning shakl-u shamoyilini, o'ta murakkab ruhiy olamini tasvirlar ekan, bunda o'sha obyekt - insonga yondashuv turli usullarni talab qiladi. Chunki dunyoda bir-birini har jihatdan to'liq takrorlaydigan ikki kishini hech qachon topib bo'lmaydi. Demak, har bir qahramon o'ziga o'zgacha yondashuvni talab qiladi, har birining yuragi alohida kalit bilan «ochiladi». Bu kalit - uning kayfiyati, fe'l-atvori, nutqi, axloqi, dunyoqarashi singari o'nlab unsurlarning betakror tasviri tufayligina ishga tushadi. Shundagina o'quvchi ko'z oldida qahramon xuddi tirikdek harakat qiladi, gapiradi, kuladi, o'ylanadi, iztirob chekadi, shodlanadi va ... o'ladi. Qahramonning har bir harakati o'quvchiga ham «yuqadi», uni o'z olamiga «olib kirib ketadi». Demak, qahramon o'quvchini o'ziga ishontirishi uchun xuddi uningdek jonli so'zlashishi, fikrlashi lozim ekan, yozuvchi xalq tilidagi shevaga xos so'zlardan ham; agar qahramon tarixiy shaxs obrazi bo'lsa, qadimi yoki unutilgan so'zlardan ham; hatto bir guruh odamlargina tushunadigan jargonlardan ham foydalanishiga to'g'ri keladi. Qahramonning ruhiy holatlarini ifodalash uchun esa dialoglarning turli shakllari, hatto sukut holati ham «ishga solinadi».

Agar e'tibor bersak, kundalik so'zlashuvimizda ishlatiladigan til ham, badiiy til ham, oxir-oqibat, axborot yetkazish va axborot olishga xizmat qiladi. So'zlashuv tili yetkazayotgan axborot oddiy axborot bo'lsa, badiiy til badiiy axborotni yetkazadi, ijodkor va o'quvchi orasida badiiy muloqotning vujudga kelishini ta'minlaydi. Metodik tomondan bunday darsni tashkil etish savol-javob, kichik konferensiya shakllarida olib borilishi mumkin. Albatta, ta'limning muammoli, suhbat, evristik, tadqiqot, taqqoslash, induktiv, deduktiv metodlari

zamirida mustaqil va mantiqli tafakkur faoliyati mavjud bo‘lgani uchun ham ular ta’limning mantiqiy metodlari deb nomlanadi. Biroq 5-sinf o‘quvchisini fikrlashga o‘rgatish va unda nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishda ko‘proq suhbat metodi qo‘l keladi.

Suhbat metodining o‘quvchi tafakkuri mustaqilligini ta’minlashda o‘ziga xos ahamiyati katta. Bugungi ta’limda yangi bilimlar, ma’naviy sifatlarning kashf etilishi o‘quvchilar ishtirokida o‘qituvchi tomonidan emas, balki o‘quvchilarning o‘zлari tomonidan o‘qituvchi rahbarligida amalga oshirilishi talab qilinmoqda. Bunday jarayon esa asar ustida ishslash davomida o‘qituvchi va o‘quvchining jonli muloqatida, tom ma’noda izlanuvchi suhbatlarda amalga oshadi. Darsda yaxshi tashkil etilgan suhbatning ahamiyati shundaki, u yosh kitobxonning o‘qiganlari haqida gaplashish, unga o‘z munosabatini bildirish, o‘z fikrlari bilan o‘rtoqlashish kabi ehtiyojlarni qondiradi.

Suhbatda ishtirok etgan o‘quvchi o‘z fikrlarini muhokama qiladi, uni so‘zlar bilan shakllantiradi. U fikrning aniqligi va tiniqligini ta’minlashga olib keladi. SHu bilan birga o‘quvchi dunyoqarashini ham ko‘rsatadi. Suhbat jarayonida o‘z fikrini aytish, uning to‘g‘riligiga ham suhbatlarini ishontirish ehtiyoji paydo bo‘ladi. Suhbatning vazifasini belgilab, unga tayyorlanish davomida o‘qituvchi o‘quvchilar oldiga vazifa qo‘yib, masalani mustaqil ravishda, to‘g‘ri hal etishga yordam beradigan savollar tuzadi.

Suhbat metodi adabiy ta’limning barcha bosqichlarida: kirish darslarida ham, badiiy asarni o‘zlashtirishda ham, uning tahlili maboynida ham, yakunlovchi bosqichda ham qo‘l keladi. O‘quvchi savolga javob berish uchun mustaqqil ravishda o‘ylanishi, eslashi, tasavvur qilishi, izlanishi nazarda tutilgan bo‘lishi darkor. Suhbat uchun tuzilgan savollar aniq mantiqni talab qilgani holda, ular orasida ham mantiqiy aloqa bo‘lishi kerak.

Badiiy asar o‘quvchi uchun hayotni, olamni bilish, shu asosda o‘zligini anglash va baholash o‘lchovi bo‘lganda chinakam qadrli bo‘ladi.

O‘quvchilarning suhbatlar jarayonida hayot bilan uzviy aloqasini ta’minlash uchun asar ustida ishslash jarayoniga o‘qituvchi bolalarning kitobxonlik va hayotiy

tajribasi bilan bog‘liq: “shunday hodisa ifodalangan boshqa bir asarni eslay olasizmi? Ularning bir-biridan farqi yoki o‘xhashligi nimada deb o‘ylaysiz? Siz shunday vaziyatda nima qilgan bo‘lardingiz?” kabi savollarni ham o‘rtaga tashlashi lozim. Chunki bunday savollar nafaqat asar matni, balki o‘quvchi xarakteri va qiziqishlari bilan ham aniqlanadi. Bu jarayon o‘quvchilarning qiziqishlari va madaniyati tarbiyalanishida ham katta samara beradi.

«Kuz manzaralari» she’rini o‘rganish bo‘yicha darsni quyidagicha rejalashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Ma’lumki, «Poeziya tavsiflar bilan emas, balki ramzlar va obrazlar bilan so‘zlashi kerak, poeziya tavsif yetmaydi va undan nusxa ko‘chirmaydi, balki uni yaratadi», - degan so‘zlar to‘lig‘icha hassos shoir Abdulla Oripov she’riyatiga ham daxldordir. Chunki Abdulla Oripov poeziyasida shoir sof tuyg’ularning go‘zalligini nafis poetik obrazlarda mujassamlashtiradi. Shoirning ijodini o‘rganishda o‘qituvchi shoir haqida qisqacha ma’lumot beradi. Ifodali o‘qish va matn ustida ishslash jarayonida o‘qituvchi quyidagilarga alohida e’tibor beradi:

- Abdulla Oripov she’riyatida shonli tarixning badiiy talqini;
- Shoir qalbida paydo bo‘lgan iztiroblarning ifodalanishi;
- Insoniy tuyg’larning tarannum etilishi;
- She’rlarning badiiy xususiyatlari.

Darsning ko‘rgazmasi sifatida va o‘quvchilarning kitobxonligini oshirish maqsadida ijodkor haqida vaqtli matbuotda e’lon qilingan maqolalar, adabiyotshunos olimlar va adiblarning fikrlari, shoir she’riy to‘plamlari tavsiya qilinadi.

Texnik vositalar: magnitafon, kodoskop.

Darsning maqsadi: 1. O‘quvchilardagi mustaqil erkin fikrlash ma’naviy teranlik xususiyatlarini shakllantirish. 2. O‘quvchilarda ifodali o‘qish va she’riy asar tahlili ko‘nikmalarini takomillashtirish. 3. Milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash. 4. She’riy go‘zallik va nafosatni his qilishga o‘rgatish.

Darsning uslubi: Ijodiy izlanish uslubi.

Birinchi topshiriq: «Aql qasr – test» da o‘quvchilar darslikda berilgan savol-topshiriqlar bilan ishlaydilar. Ular yuzasi-dan ikkitadan test tuzadilar va bir-birlari bilan almashib ishlaydilar. Mustahkamlash uchun tuzilgan eng yaxshi testlar savol tariqasida sinfda beriladi. Masalan:

- 1 Shoir badiiy ijodni qachon boshlagan?
2. Abdulla Oripov she’riyatga qanday munosabatda bo‘lgan?
3. Ilk to‘plamining nomini ayting.
4. Qanday she’riy kitoblarini bilasiz?
5. Uning she’rlari nima uchun kitobxonning ko‘ngil mulkiga aylandi? kabi...

So‘z san’ati inson nutqiga fayz berib, uning ta’sir kuchini oshiradi. Bu haqda O‘rta Osiyoning mutafakkiri Abu Nasr Farobiy (873-950) o‘zining ilmiy ishlarida ovoz, nutqning tarbiyaviy roliga alohida ahamiyat berib, ifodali o‘qish zo‘r san’at ekanligini aytadi. She’rlarni ifodali o‘qishdan oldin barmoq vaznidagi she’rlarning tuzilishi va o‘qilishiga e’tibor qaratiladi. Barmoq sistemasiga xos she’rlar cho‘ziq va qisqa bo‘g’inlarga ajratilmaydi. Balki hijolar miqdoriga asoslanadi. Bunday she’rlarning misralaridagi hijolar soni bir xilda tekis takrorlanib keladi.

Ikkinci topshiriq: «Nazm daqiqasi»ning birinchi bosqichi ifodali o‘qish bo‘lib, unda magnit lentasidan she’rlar o‘qiladi. O‘quvchilar she’rlarning o‘qilish texnikasiga e’tibor qaratishadi va birgalikda she’rlarni o‘qishadi, yod olishadi.

Uchinchi topshiriq: «Nazm daqiqasi»ning ikkinchi bosqichi ongli o‘qishda o‘quvchilar she’r mazmuniga e’tibor qaratishadi. She’riy misralarni matnga aylantiradilar. Og‘zaki tushunchalarini gapirib beradilar. Ular xulosa chiqarishlaridan oldin o‘qituvchi kodoskopdan kitoblardan olingan parchalarni qiroat bilan o‘qiydi.

Parchalar o‘qib eshittirilgach, ularga quyidagi savollarni berib murojaat qilish bilan bahs – munozara bosqichiga kirish mumkin:

1. Keltirilgan parchalar sizda qanday taassurot uyg‘otdi?
2. She’rda nomlari tilga olingan ulug‘ bobolarimiz, ularning jahon madaniy, ilmiy taraqqiyotiga qo‘shtan hissalari haqida tasavvur qilib ko‘rdingizmi?

3. Abdulla Oripovning she'rlariga munosabatingiz, kabi... savollarga o‘quvchilar o‘z mulohazalarini bildiradilar. So‘nggi savolga ular shoir ijodiga katta qiziqish bilan qarashganini, she’rlarni hayajon bilan o‘qishganini, shoir she’rga solgan muammolar oldida ma’suliyatni his qilganlarini bayon etishadi.

Darsning shioridan ko‘rinib turibdiki, shoir o‘z yurtini dildan sevadi. Sizda uning tuyg‘ulari uyg‘otgan taassurot haqida so‘zlab bering!

1. Kuzgi yaproqlar bilan shoir qalbidan to‘kilgan olov o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor deb o‘ylaysiz?
2. “*Shoxlarda mezonlar yaltirar xira, Poyida shivirlar mening kuylarim*” satrлари ma’nosini sharhlang. Shoxlar poyidagi kuy nima?
3. Shoirning mezonlar haqida: “*Bu mening chuvalgan, so‘ngsiz o‘ylarim*”, — deyishining hayotiy va badiiy asosini toping.
4. She’rni yod oling.

Uyga vazifa qilib she’rlarni yodlash, matnning namunali ijrosini tinglash va o‘z ijrosini magnit tasmasiga yozib olish beriladi. «Men sevgan shoir», «O‘zbekistonda— kuz!» mavzularida kichiq matn yaratish topshiriq qilib beriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ijodiy izlanish darslari iqtidorli va ijodkor, chinakam fanimiz ixlosmandlari bo‘lgan bolalarni kashf qiladi. Ayni vaqtda ularga ota-onas, hayot, mehnat, hunar, odamiylikni ulug‘lash, tabiatni e’zozlash, Vatanni qadrlashni o‘rgatadi.

1.2. Abdulla Oripov lirikasining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgatish

Adabiyot turli voqeа-hodisotlar qamrovida insonning rangin ruhiyati, betakror ko‘ngil olami, serqirra fi kr-kechinmalarini yoritishni asosiy maqsad qilgani bois adabiy ta’limda bilim berish bilan birga estetik tarbiya asosiy o‘ringa ko‘tariladi. Bu ta’lim oluvchining poetik idrokini shakllantirish va rivojlantirish, tafakkurini boyitish maqsadlariga ham xizmat qiladi. Ayni jihatlarni e’tiborga olib bugungi adabiyot o‘qitish mazmunini takomillashtirish, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, interfaol metodlardan foydalangan holda adabiy ta’lim samaradorligiga erishish davr talabiga aylangan. Bunda texnologik jarayonning yaxshi natija, samara berishi uchun pedagogik texnologiyaning puxta loyihalashtirilganligi va o‘qituvchining ramzlar, ishoralar, shama, qochirimlar, istioralardan foydalana olishi, nutq ohangi,

so‘z jozibasiga e’tibor berishi hamda ifodali o‘qish san’atini egallaganligi muhim. Zero, o‘quvchilarning badiiy adabiyot to‘g‘risidagi tushuncha va tasavvurlari, nazariy bilim va malakalari aynan umumiy o‘rta ta’limda shakllanadi. Bu bosqichda o‘quvchilarning badiiy tafakkuri, kitobxonlik madaniyati, ma’naviy fazilatlarini yuksaltirish imkonlari nihoyatda keng.

Yangilangan dasturiy talablarga muvofiq o‘quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini chuqur rivojlantirishga erishishda ham umumiy o‘rta ta’lim bosqichi asosiy o‘rinda turadi. Xususan, 9-sinflarda adabiyot o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning badiiy asarlarini ifodali va sharhlab o‘qish, tinglab tushunish, fikrni og‘zaki va yozma bayon qilish, adabiy asarlarni poetik tahlil qilish (asar mavzusi va g‘oyasi, tur va janr xususiyatlarini aniqlash, obrazlarni tasniflash, poetik tasvir vositalarini ajratish, ijodkor poetik mahoratiga munosabat bildirish, asar ma’naviy-estetik qimmatini belgilash) kabi fanga oid adabiy-nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish ko‘zda tutiladi. Ayni dasturiy talablarni muvaffaqiyatli hal etishda, jumladan, she’riy asarlarni o‘rganishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanish yuqori samara beradi.

She’riy asarlarning janriy xilma-xilligi, mavzu qamrovining kengligi, bu asarlarda hissiy kechinmalar, ruhiy kayfiyat tasviri ustuvorligi darslarni ham rang-barang shakl va mazmunda tashkil etish imkonini beradi. Masalan, Abdulla Oripov she’riyatini o‘rganishda bu imkoniyatlardan keng foydalanish mumkin. Adabiyot dasturida Abdulla Oripov hayoti va ijodini o‘rganishga 3 soat ajratilgan. Unda shoir she’riyatini chuqur o‘rganish, ijodiga xos *haqqoniylit*, *samimiylit*, *falsafiylik poetik jozibadorlik* singari yetakchi xususiyatlarni o‘zlashtirish, “*Sarob*” («*O‘ylarim*»), “*Bahor*”, “*Genetika*”, “*Bahor kunlarida*”, “*Kuz manzaralari*” she’rlarida “inson ruhiyatining rangli tovlanishlari, inson va zamon munosabatlaridagi murakkab muammolarning liro-falsafiy talqin etilishi singari poetik masalalarni tahliliy asosda o‘rganish nazarda tutiladi.

Ma’lumki, interfaol metod ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Buning uchun dars

jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklargabo‘lib, ularning mazmunini ochishda *aqliy hujum*, *kichik guruhlarda ishlash*, *modellashtirish*, “poetik manzara”, *bahs-munozara*, *klaster*, *B/B/B* (*bilmayman*, *bilar edim*, *bilib oldim*), *T/T* (*tushunchalar tahlili*), *B/X* (*biografik xarita*), *muammoli vaziyat*, *tadqiqot*, yo‘naltiruvchi matn, *loyiha*, *rolli o‘yinlar* kabi adabiy ta’limga daxldor metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Mazkur metodlarni shoir Abdulla Oripov hayoti va ijodini o‘rganish jarayonida keng qo‘llash mumkin. Jumladan, darsning birinchi soatida o‘quvchilarning mavzuga tegishli bilim va malakalari, vaqtadan unumli foydalangan holda o‘quvchilar o‘rganishi lozim bo‘lgan jihatlarni aniqlashtirish maqsadida ***B/B/B*** va **“Aqliy hujum”** metodlarini qo‘llash yaxshi samara beradi. Chunki Abdulla Oripov o‘quvchilar uchun notanish, yangi bir adabiy siymo emas. Ular boshlang‘ich sinflarda adibning kichik she’rlari, she’riy hikoyatlari (“Alisherning onasi”, 2-sinf; “Iqboli buyuksan”, “Sharq hikoyasi”, 4-sinf; 5-sinfda 3 soatlik dars jarayonida esa shoir hayoti va ijodi, “O‘zbekiston” she’ri bilan yaqindan tanishib ulgurishgan. Demak, ularda bu borada muayyan tushuncha va bilimlar mavjud. Shularni e’tiborga olgan holda darsning asosiy qismini adib hayot yo‘lini, sermahsul ijodiy faoliyatini o‘rganishga sarflamasdan, uning she’riyati tahliliga keng o‘rin ajratish maqsadga muvofiq.

Darsning birinchi soatida o‘quvchilarga adib hayoti va ijodiy faoliyatiga tegishli darslikda mavjud bo‘lmagan ma’lumotlardan lavhalar keltirib, ularni darslikda berilgan manbani (unda ma’lumotlar shoirning o‘z tilidan bayon qilingan) mustaqil o‘qib-o‘zlashtirishga, o‘z ustida ishlashga, izlanishga yo‘naltirish lozim. Xususan, bunda **“B/X”** (*biografi k xarita*) metodidan foydalananish maqsadga muvofi q. Ya’ni o‘quvchilarga shoir Abdulla Oripov hayoti va ijodining muhim sanalari va ular bilan bog‘liq ma’lumotlarni darslik va

darslikdan tashqari manbalardan foydalangan holda ketma-ketlik asosida tizimlashtirish topshirig‘i uyga vazifa qilib beriladi. Natijada o‘quvchilar izlanib, intilib, mavjud bilimlarini yangilari bilan boyitadilar, xilma-xil ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. O‘z navbatida, bitta dars davomida barcha o‘quvchining faol ishtiroki, teng baholanishi ta’minlanadi.

Dars jarayonida dastlab o‘rganiladigan she’r matni bilan tanishishda ham ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish mumkin. Masalan, tahlil qilinadigan she’rni o‘qituvchining o‘zi yoki she’rxon o‘quvchi yod o‘qib berishi yoki biror suxandon tomonidan ijro etilgan varianti qo‘yib eshittirilishi yoinki muallif ijrosidagi ifodani tinglash imkonlari mavjud. Bu pedagogning izlanuvchanligi va xohishiga ko‘ra tanlanadi. Bizningcha, vaqt chegarasini, she’rlarning ma’-naviy-estetik ahamiyatini hisobga olgan holda o‘rganiladigan she’rlar ketma-ketligini o‘zgartirsa ham bo‘ladi.

Darslikda “*Sarob*” she’ri oxirgi o‘rinda keltirilgan bo‘lsa ham, uning badiiy-ma’rifi y qimmatidan kelib chiqib, o‘quvchilarни adabiy tahlilga to‘g‘ri yo‘naltirish maqsadida ham shu she’rni tanlash mumkin. Tahlilda faqat she’r mazmunini sharhlashga, obrazlarni tasniflashga vaqt ajratmasdan, uning butun mohiyati, badiiy-ma’rifiy qudrati, har bir so‘zga yuklatilayotgan estetik vazifalarini o‘quvchilar ko‘z o‘ngida gavdalantirishga erishish pedagogik muvaffaqiyatlar zaminidir. “*Sarob*” (1966) she’ri chuqur insoniy iztiroblarni, umidlarni, hayotga chanqoq muhabbat bilan qorishiq ishtibohlarni va ulardan yangi unib chiquvchi umid kurtaklarini teran tasvirlash jihatidan qimmatlidir.

Ko‘z oldimda kiprikdayin tizilar yillar,
Har biriga marjon bo‘lar achchiq unlarim.
Xira tuman orasida cho‘g‘day miltillar,
Jayron quvib jayron yanglig‘ o‘tgan kunlarim. ...
Quyundayin charx urardik doim to‘zonda,
Chang neligin bilmas edik o‘shanda hali.
Onamizni o‘ylar edik inson deganda,

Ammo ona tanholigin bilmasdik hali. She'rnning lirik qahramoni shoirning o'zi. Biroq u, ayni vaqtida, davr yoshlaring umumlashgan obrazi. Bu qahramon timsolida zamonga katta umid bilan qaragan, lekin umidlari erta xazon bo'la boshlagan, katta va'dalarga uchib, sarosimalar girdobida qolgan avlodning umumlashma qiyofasi aks etadi. Qalbga sanchilib qolgan muqaddas umidlardan voz kechishning o'zi bo'ladimi? Lekin ular bo'lsa-chi? Yosh qalb ana shu ikki o't o'rtasida. Shamshir ikki tomonda bo'lgani bilan, ular o'rtasida qolgan ozurdajon bir o'zi-ku! Bu qahramonga oson emas. Buning ustiga mushohadakor, isyonkor, haqiqattalab bo'lsa bu qalb. Shoир, lirik qahramon o'z-o'zini ichdan so'roqqa tutishda, zamondoshi, tengdoshini ruhan tahlil qilishda davom etadi. G'oyalar, va'dalar o'tkinchi bo'lishi mumkin, lekin yurt-chi, Vatan-chi? Shoир tuyg'ulari, azoblari ular bilan yuzma-yuz qoladi:

Men ham sening quyoshingda o'sib, ulg'aydim,
Qarzdorman, tuprog'ingda qoldirdim izlar,
Ammo, ayting, qayda qoldi u yoshlik paytim,
Qayda qoldi men ishongan u o'zga hislar.

Faqat istiqlol arafalariga kelib ochiq aytish mumkin bo'lgan bu dardlarni Abdulla Oripov chorak asr avval aytgan edi. Shuning uchun bu she'r yozilganida birmuncha tutilib va "Sarob,, emas, „O'ylarim" degan nom bilan bosilgan edi. Asarning chuqur realistik kuchini ta'kidlash zarur. Unda beasos umidsizlik ham, umidbaxshlik ham yo'q. Unda dardlarga chirmalgan hayot haqiqati bor:

Xazon to'la bog'chalarga boraman tag'in,
Yana o'zni xayol ila she'rga tashlayman.
Tanib qolgan yuragimga berib bir taskin,
Yana quvnoq qo'shiqlarni kuylay boshlayman.

She'rlar tahliliga kirishish avvalida shuni ham e'tiborga olish kerakki, 9-sinf o'quvchilarida muayyan adabiy tahlil kompetensiyalari shakllangan. Ular she'riy matnni ifodali o'qish, mavzu va g'oyasini aniqlash, obrazlar tizimini ajratish, janr xususiyatlari, tasviriy vositalarini farqlash kompetensiyalariga ega. Shu boisdan o'qituvchi, yuqorida aytganimizdek, she'riy matnni o'rganishga o'quvchini

yo‘naltirishi, ularning mustaqil ishlashi, bahs-munozaraga kirishishi, o‘z ustida ish olib borishi, fikrini aniq asoslay olishi uchun sharoit yaratib berishi lozim. Bunda “*Kichik guruhlarda ishlash*” metodi har jihatdan samarali.

Bilamizki, “Kichik guruhlarda ishlash” metodi ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish hisoblanadi. Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtayi nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtini tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb etib, baholay oladi. Shu jihatdan Abdulla Oripov she’rlarini o‘rganishda bu metoddan foydalanish dasturiy talabda muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi.

“*Sarob*” she’rining namunaviy tahlilidan so‘ng navbatdagi darsda o‘quvchilarni uchta kichik guruhlarga ajratib, har bir guruhga shoirning “Munojotni tinglab”, “Yurtim shamoli”, “Birinchi muhabbatim” she’rlari alohida tahlil uchun topshiriladi. Guruhlar faoliyatini samarali tashkil qilish uchun ular tomonidan amalga oshiriladigan tahlillar dastur mazmuniga monand tartib va tizimga solinadi. Shunga ko‘ra guruh a’zolariga darslikda berilgan savol-topshiriqlar bilan bir qatorda she’riy matnlar badiiyatini ochib berishga qaratilgan topshiriqlarda quyidagi jihatlarni nazarda tutish maqsadga muvofiq:

- she’r mavzu va g‘oyasi;
- she’rda inson ruhiyatining poetik ifodalaniishi;
- inson va zamon munosabatlaridagi murakkab muammolarning liro-falsafiy talqin qilinishi;
- asosiy va yordamchi obrazlar;
- janr xususiyatlari;
- tasviriy vositalar;
- she’rning poetik til xususiyatlari;

- she’r mazmuni va sarlavhasidagi o‘zaro aloqadorlik;
- she’rga boshqa sarlavhalar tanlash;
- she’rdagi poetik vositalarni yaratishga xizmat qilgan so‘zlarning ma’nodoshlarini izlash va qo‘llab ko‘rish;
- she’r bandlari mazmuni va badiiyatini yoritishga yo‘naltirilgan savollar tuzish;
- she’r mavzusi va mazmuniga yaqin boshqa she’rlardan (o‘rganilayotgan ijodkor va boshqa shoirlar ijodiga murojaat qilish orqali) misol keltirish;
- shoirning poetik mahorati;
- she’rning badiiy-ma’rifiy qiymati, didaktik ahamiyati.

Bu topshiriqlarni shu taxlit yana davom ettiraverish mumkin. Chunki she’riy asar poetikasini o‘rganish nihoyatda serqirra.

“Kichik guruuhlar”da ishslash avvalida o‘qituvchi shu kabi tahlilni o‘quvchilar ishtirokida amalga oshiradi va guruuhlar tomonidan tahlilga tortilishi rejalahtirilgan she’r bo‘yicha yuqoridagi tartibda o‘rganishga mo‘ljallangan tarqatmalar taqdim qiladi. Guruuhlar faollik bilan ushbu topshiriqlarni bajarishga kirishadilar. Guruuhlar topshiriqlarni bajarib bo‘lgach, o‘z javoblarini taqdim etishadi; fikrlar muhokama qilinadi, yaxlitlanadi, umumiy xulosalar chiqariladi. Topshiriqlarni aniq va to‘liq bajargan guruuhlar rag‘batlantiriladi, faol ishtirok etganlar baholanadi. Shuningdek, Abdulla Oripov she’riyatini o‘rganishda **“Tadqiqot”** usulidan foydalanish ham mumkin. Bunda o‘rganilayotgan she’riy asarlar tahlili bo‘yicha muayyan rejalar tuzilib, o‘quvchilarga *mustaqil ish, referat, adabiy taqriz* tayyorlash kabi vazifalar topshiriladi. Bu jarayonda o‘quvchilar aniq tavsiya qilingan qo‘srimcha adabiy- tanqidiy, badiiy manbalardan foydalanadilar, o‘zları ustida ko‘proq ishlaydilar, mustaqil izlanadilar. Abdulla Oripovning «Kuz manzaralari», «O‘zbekistonda kuz» kabi she’rlarida «xazon» va «kuz» muayyan ijtimoiy-falsafiy ma’nolarni ifodalashga yo‘naltirilgan:

Ulug‘ Alisherning soch oqin ko‘rib,

Og‘ir xayollarga cho‘mgan bu fasl,
Qayrag‘och yonida g‘amgin o‘ltirib
Chollarga hassalar yo‘ngan bu fasl.

Xo‘s, shoir ushbu poetik tasvirga qanday ma’nolarni singdirgan? Shoir lirik qahramon ichki olamini tabiat manzarasi orqali ta’sirchan tasvirlashda qanday vositalardan foydalangan?

Lirik qahramon «men»i she’r markazida harakat qilmoqda. O‘quvchilar uning kechinmalari orqali shoir qalb kechinmalarini his etadilar. She’rda tabiat hodisalari, shoirga zamondosh insonlarning o‘y-xayollari ijodkor «men»i, uning shaxsiy kechinmalari tarzida umumlashtirilgan.

Yana dalalarga boshlaydi havas,
Bog‘larda xazonlar yonadi lov-lov.
Do‘sralim, bu kuzning barglari emas,
Mening yuragimdan to‘kilgan olov.

Nima sababdan lirik qahramon xazonlarni «yuragidan to‘kilgan olov» deb atamoqda? Kuz chog‘idagi bog‘lar, dalalarni qoplagan qizg‘ish xazonlar rangini yurak dardiga qiyoslash orqali o‘ziga xos poetik ma’no kashf etishga erishgan.

Shoir o‘z yuragini tark etgan «sevgi olovi» bugun «olamni gurkirab yondirmoqda» deyish orqali ishqisizlik insonni yemiradi, xazon kabi jonsiz, qadrsiz narsaga aylantiradi; odamlarning dardsiz, beta’sir, loqayd hayotlari umrlarni yondiradi, xazon qiladi, demoqchi. «O‘zbekistonda kuz» she’rida esa Vatanga bo‘lgan muhabbatini lirik qahramon qalbida jo‘s sh urgan hissiyotlar bezovta o‘ylar-u iztiroblar vositasida ifodalab bergen.

She’r matni to‘lig‘icha ifodali o‘qilgach, sharhlab o‘qish usulidan foydalaniib, mazkur she’r misralariga singdirilgan ma’nolar o‘quvchilar bilan birgalikda tahlil va talqin qilinadi.

Yurgil, dalalarga ketaylik do‘stim,
Diqqinafas uyda yotmoq paytimas.
Oltin O‘zbekiston tuprog‘i bu kun
Bir pari faslning og‘ushida mast.

Ona yurt o‘rangan oltin kuzning harir libosi shoir nazarida bir pari og‘ushiga o‘xshaydi. «Shabnam shovullaydi bog‘lar qo‘ynida» (shudring qo‘ngan barglardan oqib tushayotgan tomchilar ovoziga qo‘shilib ketgan). «Salqin tuman ichra bo‘zarar (yorishar) tonglar. Quyoshning erinchoq yog‘dularida nafis yaltiraydi bargi xazonlar». Tongning bo‘zarishi qanday ma’noni anglatmoqda? Yorishmoq, oqarinqirab tong otmoq; kuzning sahardagi salqin havosidan sovqotgan odamning holati jonlantirish usulini qo‘llash orqali ifodalangan; salqin tuman og‘ushida tong ham qaltiramoqda degan ma’noda «bo‘zarar» so‘zi qo‘llanilgan. Xo‘sh, quyoshning erinchoq yog‘dulari deganda nimani tasavvur qilasiz? Shoir kuzda quyoshning tafti ham pasayib, salqin nur sochmay, yotinqirab, ancha qiyalab nur sochish holatini «erinchoq» so‘zi orqali jonli va ta’sirchan tarzda ifoda etmoqda. Ko‘z o‘ngimizda kuzning poetik manzarasini jonlantirishga erishgan. Xo‘sh, bu manzara qanday ma’noni ifoda etadi? O‘quvchi tasavvurida jonlangan manzara bilan u kuzatgan, real hayotdagি kuz ko‘rinishlarini xayolan taqqoslaydi. Shoir badiiy tasvir vositalaridan foydalanib, musavvir kabi tabiat manazaralarini chizib beradi, tasvir ortiga esa muayyan ma’nolarni joylaydi. Abdulla Oripovning «O‘zbekistonda kuz» yoki «Kuz manzaralari» she’rlariga xos tasvirdan shoirning ona yurtiga cheksiz muhabbatи his qilinadi.

Ayni chog‘da shoir o‘z yurtining farzandi sifatida xalq dardlarini, iztiroblarini o‘z ko‘ngli orqali «lirk men» tuyg‘ulariga payvandlab ifodalaydi. Hayot qanchalik go‘zal, tabiat maftunkor, kuz manzaralari ham o‘ziga xos jozibali yashamasa, kuz xirmoni unga baraka, shodligu quvonchlar keltirmasa, zahmatli mehnati unga rohat baxsh etmasa, aksincha, «mehnatga qullik» oqibatida mehnat zahmat, dardi alam keltirsa, jondan aziz xalqini baxtiyor deyish mumkinmi? Xalqini mehnat qaddini bukkan, zahmatlardan ezilgan holda ko‘rish shoirni iztirobga solmoqda.

Shoir sobiq sho‘rolar tuzumi davrida xalqimiz mehnatga qul qilinganligi oqibatida uning taqdiri buyruqlar, shiorlar orqali hal qilinganligini «kuzning falsafasi shudir biz uchun» misrasiga alamlı istehzo ma’nolarini yuklab ifoda qilgan. Bunday she’rlarni tahlil va talqin qilish davomida bugungi istiqlol

davrining qadr-qimmatini anglash, bu ulug‘ ne’matni yanada mustahkamlash uchun har birimiz shu yurt, shu millat farovonligi yo‘lida kurashmog‘imiz lozimligi tushuniladi. O‘quvchilar shoirning grajdaniq tuyg‘ularini o‘z ko‘ngli orqali his qilib, millatparvarlik tuyg‘ulariga hamdardga aylanadilar. Anglab, his qilgan kechinmalarga tayanib fikrlaydilar, munosabat bildiradilar. Demak, tabiat lirikasiga mansub asarlarni o‘qib-o‘rganish va tahlil qilish vositasida nafaqat ona tabiatga mehr-muhabbat hissini tarbiyalash, balki o‘quvchiga barchamiz shu makonning, shu yurtning bir bo‘lagi ekanimizni anglatish; ona Vatan, tabiat va ona zamin oldida barchamiz mas’ul ekanimizni dildan anglab yashamog‘imiz lozimligini uqdirmog‘imiz zarur. Ona tabiat go‘zalligidan, ne’matlaridan baha olish bilan birga bu ne’matlarni ko‘paytirishga, tabiatni asrash, avaylashga barchamiz burchlimiz. Ana shunday mas’ullik tuyg‘usini his qila oladigan yoshlarni milliy va umuminsoniy tuyg‘ularga ega vatanparvar deyish mumkin. Adabiyot darsligida berilgan A.Oripov she’rlari tahliliga yo‘naltiruvchi savol va topshiriqlardan foydalanib o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga yo‘llash vositasida shoir ruhiyati, o‘y-kechinmalari mazmunini o‘quvchilar chuqr anglashlariga erishiladi. Shoir uslubini she’r tahlili jarayonida o‘rganib, ijodkor qiyofasini tasavvur qiladilar.

An`anaviy ta‘limda o‘qituvchi ilm beruvchi, tarbiyalovchi, o‘quvchi esa bilim oluvchi hamda tarbiyanuvchi shaxs: ta‘limning asosini dars tashkil etadi. Darsning maqsadi uning tashkil etish va olib borishda qo‘llanish ilg‘or metod va usullarga ko‘ra ta‘limning natijasi, ya‘ni sifati yuzaga keladi. O‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarining asosida muayyan fandan o‘quv dasturiga ko‘ra eng ko‘p darajada bilim egallah, ma‘naviy jihatdan tarbiyalashni tashkil qiladi. Bugungi ta‘limda o‘quvchi faoliyatini jonlantirish uning ijodiy qobiliyatini o’stirish, mustaqil amaliy ish yuritish malakasiga ega qilish muhim hisoblanadi. Ifodali o‘qish.

Adabiy o‘qish barcha janrlardagi adabiy asarlarni ifodali o‘qish qoidalariga binoan ravon nutqda, ifodali, tushunarli va jozibali tarzda o‘qishdir. O‘quvchi asarni ifodali o‘qiyotgan shaxs shu asarning mazmunini tinglovchiga yetkazishga

undan badiiy zavq olishga ta'sir ko'rsatadi. Adabiyot darslarida hamisha ifodali o'qishdan foydalaniladi. Agar dars ifodali o'qish darsi sifatida tashkil etilgan bo'lsa, bu metod sifatida namoyon bo'ladi. Agar dars ma'lum asar tahliliga bagishlangan bo'lsa ifodali o'qish usul sifatida qo'llaniladi. Metod keng ma'nodagi tushuncha bo'lib o'quvchilarni ma'lum ijodiy ishga yo'llash yoki muayyan bilimlar berishdagi o'qituvchi qo'llaniladigan ta'lim vositasidir.

Ijodiy o'qish.

Ma'lum asardan parchalarni matn mazmunini umuman o'zgartirmasdan o'qishdir. Masalan: "Yulduzli tunlar"dan... umumiylar mazmunini saqlagan holda ijodiy o'qish mumkin. Sharhli o'qish usulidan klassik matnlarni o'rghanish va tahlil qilishda foydalaniladi. O'qituvchi har bir bayt mazmunini sharhlab, tushuntiradi, izoh talab so'zlarga izoh beradi. Rollarga bo'lib o'qish usulidan sahna asarlarini yoki nasriy asarlarni o'rghanishda foydalaniladi .

Jo'r bo'lib o'qish usuli ta'limning boshlangan bug'inlarida qo'llaniladi va o'quvchini umuman kitob o'qishga o'rgatiladi.

Ssenariy o'qish usulidan tayanch va yuqori sinflarda foydalaniladi. Matnni o'qib o'rghanish asosida ssenariy tuzish amalga oshiriladi. Bu usul matnni mustahkam o'zlashtirish va qayta hikoyalashga yordam beradi.

2. Ma'ruza metodidan asosan yuqori sinflarda foydalaniladi. Sarhisob mavzular, davrlarga obzor berish, ma'lum yozuvchining hayoti va ijodini monografik tarzda o'rganshda ma'ruza metodidan foydalaniladi.

Suhbat metodi. Agar darsning ko'riliishi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi adabiy muloqotga asoslansa va unda o'qituvchining o'quvchi o'rtasidagi savol-javoblar, ayrim paytlarda munozaralar yetakchilik qilsa, bunday dars suhbat metodiga tayanadi.

3.Tadqiqot metodi.

Sinfda o'qib o'rghanilgan ijodkor uslubining yangi qirralarini o'rghanishda tadqiqot metodidan foydalaniladi. Tayanch sinflarda adabiyotni o'rghanishda badiiy asar qismlari bo'yicha rejalar to'zdiriladi. Yuqori sinflarda esa monografik mavzularni o'rghanish jarayonida o'qituvchi o'z ma'ruzasining rejasini beradi.

Mazkur rejalarda belgilangan masalalarga oid adabiyotlar ko'rsatiladi. O'quvchilar qo'shimcha adabiyotlar, matbuot materiallari yordamida rejadagi masalalarni to'ldirgan holda o'rganadilar. Masalan, Shoir A.Oripovning «Genetika» she'rini tahlil qilish masalasi qo'yiladigan bo'lsa, bundan maqsad: o'quvchilarning she'rni ifodali o'qish va badiiy asarni tahlil qilish malakasini takomillashtirish; «Genetika» she'ri tahlili vositasida asarga xos poetik tafakkur tarzini; lirk qahramon kechinmalari mazmunini o'z sezimlariga tayanib yoritish. O'quvchilarning mustaqil fikrlash salohiyatini o'stirish; shoir uslubi va mahorati qirralarini ochib berishdan iborat.

Darsning tarbiyaviy maqsadini shoirning bobolarga daxldorlik tuyg'ulari bilan o'z avlodni xususidagi o'y-kechinmalari ifodalangan she'r bandlari orqali o'quvchilarda millat va yurt oldida mas'ullik, burchini his qilish; kelajak avlod uchun yaratish, intilish, kurashchanlik xislatlarini, bunyodkorlik ishlarini meros qoldirish tuyg'usini kamol toptirish tashkil etadi.

O'quvchilarni faollashtiruvchi metod va usullar: «aqliy-hissiy hujum», «muammoli ta'lim» metodi, «klaster» usuli tanlanadi. Dars jarayonini loyihalashtirishda o'quvchilarning yoshi, bilim darajalari, faolligi, qiziqishlari kabi har bir sinfga (sinfdag'i o'quvchilar saviyasi, ruhiyati, intilishlari va x.k.) xos xususiyatlar e'tiborga olinadi.

«Aqliy-hissiy» hujum uyushtirishda darslikdagi savollardan foydalanish ham mumkin. Muammoli savollarni o'qituvchi o'zi tuzib kelishi ham mumkin.

1. Inson o'z davridan, zamonidan ayri yashashi mumkinmi?
2. Bilmadim, qonimda qay avlod yashar?" — deyish orqali shoir nimaga ishora qilmoqda? Bobo Kayfiy va Ulug'bek nomlarini tilga olish orqali shoir nima demoqchi? Muqanna, Bobur timsollari qanday ma'noga ega?
3. "... Tanimizda kezar-ku beshak, Olis bobolarning ming yillik qoni... Shervachchada esa sherning shiddati..." misralari qanday ma'noni anglatadi?
4. «Yiroq avlodlarga bizlardan beshak, qolar kurashlarda toblangan xayol» misrasidagi «toblangan xayol», «buyuk bardosh» qanday ma'nolarni ifoda etadi? «Haqqa, haqiqatga tashnalik» ma'nosini siz qanday izohlaysiz?

5. Tug‘ilajak «eng oliv» va «mukammal inson» haqidagi shoir orzulari ma’nosini o‘z o‘y-kechinmalaringizga tayanib sharhlang.

Mustaqil holda. Insho, bayon adabiy taqriz tayyorlaydilar.

Izlanish metodi. Bu metod tadqiqot metodiga o‘xshab ketsada undan farqli tomonlari ham bor. O‘xhash jihat: har ikkala metod o‘quvchilarning ijodiy izlanishlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Farqli tomoni: tadqiqot metodini qo‘llashda o‘qituvchi, boshlovchi yo‘naltiruvchi va darsni yakunlovchi sifatida harakat qilsa, izlanish metodida vazifalarni topshiruvchi va tekshirib, baholab o‘quvchilarni rag‘batlantiruvchi sifatida ko‘rinadi. Izlanish metodi adabiy konsepsiylar, uchrashuvlar, nazariy darslarda o‘quvchilarning mustaqil ijodiy ishlarini tayyorlashda (referat, taqriz, adabiy ijodiy ishlar) ko‘proq foydalilaniladi. Dars oxirida test olish ham mumkin.

Abdulla Oripov she’riyati to‘g‘risida

1. She’r izlayman bu kun Toshkent ko‘chalarida,

Sekingina zirqiraydi beorom qalbim.

Men umrimning bu suronli kechalarida,

Na bir taskin topa oldim, na she’r topoldim. Ushbu misralar muallifi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

A) Abdulla Oripov B) Erkin Vohidov C) Muhammad Yusuf D) Hamid Olimjon

2. O‘n oykim, so‘lmishdir u tanish na’ra.

Hamon firog‘ida fig‘on chekar Shosh.

Bahor kelayotir, bosh ko‘tar, qara,

O, surur kuychisi, dongdor zamondosh. Abdulla Oripov qalamiga mansub ushbu satrlarda kim nazarda tutilgan?

A) M.Shayxzoda B) G‘.G‘ulom C) Oybek D) A.Qahhor

3. Bugun-chi, ne bezar o‘tli qoningda!

Evo, unda na she’r, na may, na safo.

Bu qanday muloqot? Ne hol? Yoningda.

Joy olmish o‘zga bir suyukli daho. Ushbu satrlarda ko‘zda tutilgan dahoni aniqlang.

A) M.Shayxzoda B) G‘.G‘ulom C) Oybek D) A.Qahhor

4. O‘zining she’rlari bilan “quruqshagan o‘zbek she’riyatiga o‘ychil g‘am g‘amchil o‘y” olib kirgan adib to‘g‘ri berilgan qatorni belgilang.

A) Muhammad Yusuf B) Abdulla Oripov C) E.Vohodov D) Zulfiya

Nazariy ma’lumot. Lirik qahramon

1. 1921- yilda rus olimi Y.N.Tinyanov tamonidan adabiyotshunoslikka kiritilgan tushuncha qaysi qatorda berilgan?

A) lirik qahramon B) xarakter C) personaj D) badiiy to‘qima

2. Nima qolar ekan? Qay ezgu tilak,

Qay his, yuraklarda topolgan kamol?

Yiroq avlodlarga bizlardan beshak

Qolar kurashlarda to‘plangan xayol. She’r muallifini aniqlang.

A) Cho‘lpon B) Muhammad Yusuf C) Shavkat Rahmon D) Abdulla Oripov

3. O‘tgan asrning 60-80- yillarda o‘z she’riyati bilan “o‘zbek millatini tuyg‘ularning quruqshab qolishdan saqlab qolgan” adib kim?

A) Rauf Parfi B) Abdulla Oripov C) Azim Suyun D) Usmon Azim

Darsda o‘quvchilarining faolligini oshirish, ularni zukkolikka, chaqqonlikka o`rgatishga katta e`tibor berildi. O‘quvchilarining Abdulla Oripovning «Genetika» she’rini o‘zlashtirishi orqali iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy va siyosiy sohalarda qo‘lga kiritilgan yutuqlari haqidagi bilimini oshirish maqsad qilib olingan edi. Shuningdek, mavzu orqali o‘quvchilarda, qadriyatlarni ulug‘lash, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘sishsh tuyg‘usini rivojlantirish ham maqsad qilindi Darsda o‘quvchilarining yangi pedtexnologiyalar asosida mavzu ustida ishlashiga, interfaol usullarni ***ishlatishiga katta e’tibor*** qaratildi.

She’riy matnlarni ushbu yo‘nalishlarda, innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar yordamida o‘zlashtirish asnosida o‘quvchilar so‘zning bepoyon imkoniyatlariga guvoh bo‘ladilar, poetik tafakkurlarini yuksaltiradilar, badiiy durdonalardan yanada chuqurroq bahramand bo‘lishga, ijodkor g‘oyasini teran anglashga erishadilar. Bu esa adabiyot darslaridan

ko‘zlangan maqsad va vazifalarni munosib darajada hal qilish, o‘quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish; badiiy idroki o‘tkir kitobxonlarni, yuksak ma’naviyatli barkamol avlodni tarbiyalashning mustahkam zaminidir.

II BOB. ADABIYOT DARSLARIDA ABDULLA ORIPOV HAYOTI VA ADABIY MEROSONI O‘RGATISH USULLARI

2.1.Abdulla Oripov hayoti va faoliyatini o‘rgatishning samarador usullari

Kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, shoir asarlarining talqin va tahlili uning tarjimayi holi bilan chambarchas bog'liq holda olib borilishi mumkin. Ya'ni ijodkor tarjimayi holi to'g'risidagi mulohazalarimiz uning asarlari mazmun-mohiyatini chuqurroq anglatishda bizga yaqindan yordam beradi. Shu holat hisobga olingan holda, darslikda Abdulla Oripov hayoti va ijodiy faoliyatiga doir nisbatan batafsilroq ma'lumot o'quvchiga taqdim etilgan.

O'quvchi ong-u shuuriga singdirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar ijodkorning ijtimoiy faoliyati bilan ham bog'liq. Abdulla Oripov hayoti va ijodini o'rganishga bag'ishlangan ma'lumot o'quvchi uchun qiziqarli bo'lgan quyidagi so'zlar bilan boshlanadi:

Rasul Hamzatov, Rasul Rizo, Qaysin Quliev, David Qo'g'iltinov, Mustay Karim, Baxtiyor Vahobzoda, O'ljas Sulaymanov singari zamonamizning ulug' shoirlarining Abdulla Oripov haqida aytgan dil so'zlari, hatto, uning ilk she'rlarini, birinchi adabiy chiqishlarini o'qib bildirgan bashoratlaridan namunalar keltirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi .

2001-yil 14-mart kuni Belgiya poytaxti Bryusseldan oqsoqol yozuvchi, insoniyat tafakkurining nodir iste'dodlaridan biri bo'lgan CHingiz Aytmatov Abdulla Oripov fenomeni va uning o'zbek xalqi, uning dahosi haqidagi qarashlarini ifoda etib, uni tarixiy shaxs, mutafakkir shoir, davlat arbobi va faylasuf kuychi deya e'tirof etdi va XXI asrning ulkan shoirlaridan biri ekanligini ta'kidladi: katta shoir hamisha o'z vaqtida maydonga keladi, u-hamisha tarixiy. Zotan, katta shoir o'z xalqining ovozi, uning orzu-umidlari va inson qalbi, iktiroblarining ifodachisidir. Biroq, eng asosiysi, u o'z davrining hakami va kuychisi, u-jarchi va faylasuf, u so'z sehrgari va uzlatga chekingan mutafakkir-darvesh. Bularning bari unga qalb izhorini hammaga birday tushunarli, sevimli va shu bilan birga, ko'tarinki teran ma'nolar mohiyatini ifodalash uchun ato etilgan.

Shu bois shoirning so'zlaridan zamondoshlari ham, kelgusi avlodlar ham faxrlanib yuradilar. Abdulla Oripov menga XXI asrga qadam qo'ygan davrimizning buyuk madaniy ahamiyatga molik ana shunday shoiri bo'lib gavdalanadi.

Qadrli ukam, o‘z milliy pozitsiyasini boyitish va jahon madaniyati xazinasiga munosib hissa qo‘sish shuning uchun o‘zbek so‘z san’ati yo‘llarida shoirlik missiyasini davom ettirishingizni tilayman⁴.

Biror ijodkorni chuqurroq anglash uchun, yaratgan asarlari mazmunini teranroq his qilishda yozuvchining o‘zi haqida yozganlari, zamondoshlarining u haqidagi fikrlaridan ham foydalanish lozim bo‘ladi. Bunday fikrlar qo‘sishimcha adabiyotlarni o‘qiganda, gazeta-jurnallarni varaqlaganda ko‘plab topiladi. O‘qituvchi shoirning yoshlik, o‘smirlik yillari, ijodining ilk shakllanish davri haqida ma’lumot berayotganda adibning o‘zi haqidagi xotiralaridan keng foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, “Ko‘rgan - bilganlarim”da shoir quyidagilarni aytadi: “Mening tug‘ilib o‘sgan, bolaligim o‘tgan joylar Qarshi (qadimgi Nasaf) shahridan besh-o‘n chaqirim shimolroq tomondagi Qo‘g‘irtov etaklaridadir... bu dunyoning voqeasi va hodisalari xotiramda to‘rt-besh yoshlarimdan boshlab qolgan. Urushdan qaytmaganlarning azalari-yu qaytgan mayib-majruh qishloq doshlarimning qo‘ltiqtayoqni to‘qillatib yurganlari esimda. Ocharchilik, odamlarning kunjara yeganlarini ko‘p ko‘rganman... Negadir bolaligimda xotiram juda kuchli edi. Bir o‘qiganim esimda qolaverar edi. Radio, televidenie yoxud boshqa tomoshalar bo‘lmaganidan keyin ermagim kitob edi-da. Dux kelgan narsani o‘qib, dux kelgan narsani yodlab olardim. Bu kitoblar orasida xalq dostonlari ham, Navoiy bobomiz-u Pushkindan tarjimalar ham, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon she’riyati va yana boshqa ko‘p roman-u qissalar bo‘lardi”.

Shular bilan bir qatorda, shoir kamolotida xalq og‘zaki ijodi va navoiyxonlikning ham muhim o‘rin tutganligini o‘quvchilarga yetkazish uchun ularni yana quyidagilar bilan ham tanishtirish mumkin: “... qish kunlarida to‘ylarga qo‘shti tumanlardan nomdor baxshilar kelib, tong otguncha doston aytishardi. Biz bolalar baxshini tinglay-tinglay bir-birimizga biqinishib uqlab qolar edik. Yanglishmasam, o‘sanda Umur shoir degan baxshining dostonlarini ko‘p eshitganman. Bir qo‘snimiz, g‘oyat pokdomon Kamolxon eshon degan kishi

⁴ Чингиз Айтматов. Кутлов. Ўзб. адаб. ва сан. 2001 йил, 23 марта.

bo'lardi. Rahmatlikning onasini Bibi momo der edilar. Bibi momo o'ta darajada savodxon buvi edilar. Onam rahmatlikka ergashib, ularning suhbatida qatnashib qolardim. Bibi momoning kattaligi sandaldek keladigan kitobi bor edi. Kitobni Navoiy-kitob derdilar. Bibi momo Farhod-u SHirin, Layli-yu Majnunlarni 18 chunonam qiroat bilan o'qirdiki, ma'nosini ko'pam tushunmasam ham qiroatdan maza qilardim".⁵

Keyingi o'n yillar moboynida yaratilgan ishlarda ilmiy tadqiq, tahlil yo'nalishi butunlay o'zgardi.

Mazkur tarjimayi holda keltirilishicha, adib hali 5-sinf o'quvchisi bo'lgan paytlardayoq adabiy asar mashqi bilan shug'ullana boshlagan. Bu 10-11 yoshli bolalik davriga to'g'ri keladi. O'qituvchi ana shu nuqtalarga alohida e'tibor qaratishi lozim. O'quvchilarga adibning ular yoshida bo'lgan chog'larida ijodga qo'l urganini tushuntirish orqali badiiy ijodga moyilligi bor bolalarga ijodiy ta'sir etishi mumkin. Abdulla Oripov atoqli o'zbek shoiri, davlat va jamoat arbobidir. XX asrning 60-yillaridan A. Oripov asarlari bilan boshlangan sifat o'zgarishlar o'zbek adabiyotini yangi bosqichga ko'tarishda muhim rol o'ynadi. Yassaviy, Navoiy, Bobur, Cho'lpom, G'afur G'ulom ijodiy an'analarini davom ettirayotgan A. Oripov she'riyati o'zbek adabiyotini uzviy bir yaxlitlikda o'tmish va kelajak bilan bog'lab turadi. Bo'lajak shoir Navro'z kiradigan kun 1941- yil 21- martda Qashqadaryo viloyati Koson tumani, Neko'z qishlog'ida tug'ildi. Kenjatoy Abdullajon tirishqoq va shoortabiat bo'lib ulg'ayishida oddiy dehqon Orifbobo va Munis aya Turdi Karvon qizi ta'sirlari katta bo'ldi. Xayolsevar, hayotsevar yigit maktabni oltin medal bilan bitirdi. Toshkent Davlat (hozirgi Milliy) universitetining filologiya fakultetida tahsil oldi. Adabiyotning nozik bilimdonlari Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonov, Umarali Normatov kabi ustozlar qo'lidagi talim-tarbiya; Erkin Vohidov, O'tkir Hoshimov, Shukur Xolmirzayev kabi talaba do'stlar muhiti; Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Mirtemir singari san'atkorlardan bevosita va bilvosita olingan saboq g'unchalab kelayotgan Abdulla Oripov iste'dodiga barakali ta'sir ko'rsatdi. A. Oripov dastlabki „Mitti

yuldiiz! she'riy to'plami bilanoq butun O'zbekistonga mashhur bo'lib ketdi. Keyingi kitoblari bu ishonchni yanada mustahkamladi. "Onajon,,Yuzma-yuz", „Yillar armoni" (1984) to'plamlari, ulardagi she'rlari bilan XX asr o'zbek adabiyotining zabardast vakillari qatoridan o'rinn egalladi. Asarlari ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilindi.

She'riyat pillapoyalarida orttirilgan tajriba va ehtiyoj hayotni, qahramonni kengroq, chuqurroq tasvirlashga undadi. Shoir o'zbek adabiyotini „Jannatga yo'l" (1978), „Hakim va ajal", „Ranjkom" dostonlari bilan boyitdi. Buyuk Amir Temur siymosi A. Oripov qalbini, tafakkurini doimo to'lqinlantirib keldi.

Istiqlol sharofati tufayli bu daho qiyofani butun murakkabligi, ulug'vorligi bilan, emin-erkin, xolis gavdalantirish imkoniyatiga ega bo'ldi: „Sohibqiron" (1996 —1998) nomli she'riy dramasini yaratdi. A. Oripov mustaqillik davrida Vatan, erk, ozodlikni tarannum etuvchi o'nlab yangi she'rlar yozdi. Yangi tarixiy sharoit ijodiga yangi to'lqinlar olib kirdi. Haj safari natijasida tug'ilgan hamda hikmatomuz hadislar talqiniga bag'ishlangan falsafiy-didaktik she'rlari so'nggi bosqich o'zbek adabiyoti ufqlarini yanada kengaytirdi. Xalq o'zining sevimli shoirini jamoat va davlat ishlarida yuksak martabalarga, adabiy-madaniy hayotda yo'lboshchilik lavozimlariga ko'tardi. U "Gulxan", „Sharq yulduzi jurnalida bosh muharrir bo'ldi. Uzoq yillardan buyon Mualliflar huquqini himoya qilish xalqaro tashkilotining O'zbekiston bo'limini va O'zbekiston yozuvchilar uyushmasini boshqardi. Abdulla Oripov O'zbekiston xalq shoiri, Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, O'zbekiston Qahramonidir.

Bastakor Mutal Burhonov musiqasi, shoir Abdulla Oripov so'zi bilan ijob etiluvchi O'zbekiston Respublikasi madhiyasi yangraganda tik turib hurmat bajo keltiramiz.

SHoir haqidagi ma'lumotlarni quyidagi tahlitda ham keltirish mumkin.

1941 yil 21 martda Qashqadaryo viloyati Koson tumani Neko'z qishlog'ida tug'ildi.

1958-1963 yillarda Toshkent davlat universiteti filologiya fakultetining jurnalistika bo'limida tahsil oldi.

1963-80 yillar oralig‘ida nashriyotlarda, «Sharq yulduzi», «Gulxan» jurnallarida, so‘ng teatr, Madaniyat instituti va Respublika Yozuvchilar uyushmasida faoliyat ko‘rsatdi.

1965 yilda «Mitti yulduz» nomli birinchi she’riy to‘plami bosilib chiqdi.

A.Oripov «Ko‘zlarim yo‘lingda» (1966), «Onajon» (1969), «Chashma», «Ruhim» (1971), «O‘zbekiston» (1972), «Hayrat» (1974), «Yurtim shamoli» (1976), «Najot qal’asi» (1981), «Yillar armoni» (1986), «Ishonch ko‘priklari» (1989), «Munojot» (1992), «Haj daftari» (1992), «Dunyo» (1995), «Saylanma» (1996), «Asarlar» (4 jildlik – 2001), «Adolat ko‘zgusi» (2005) singari she’riy kitoblarning muallifi.

Tarjimon sifatida L.Ukrainka, A.Pushkin, N.Nekrasov, T.G.Shevchenko, V.Charens, N.Ganjaviy, Q.Quliev she’rlarini, Dantening «Illohiy komediya» asarini tarjima qildi.

1981 yilda «Hakim va Ajal» dostoni uchun O‘zbekiston Davlat mukofoti berildi

1983 yilda Hamza nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi.

1992 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi matnini yaratdi.

1994 yilda «Munojot» to‘plami uchun Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofotini oldi.

1998 yilda “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlandi.

Abdulla Oripov Yozuvchilar uyushmasi raisi, Oliy majlis deputati, senator sifatida faoliyat olib bordi. U O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq shoiridir.

Abdulla Oripovday shoir yuz yilda bir marta tug‘iladi.

Islom KARIMOV

She’riyatda kutilmagan yangi nafas paydo bo‘ldi. Tomchini kuzatgan bo‘lsangiz to‘lishgandan keyin tomadi. Abdullajonning she’rlari ham ana shunday. Oldin so‘zma-so‘z, satrma-satr yuragi qonida qaynab pishadi. Ana undan so‘ng qog‘ozga tushadi.

Abdulla QAHHOR

Abdulla Oripov she'riyatining dovrug‘ini momoqaldiroqqa o‘xshatadilar. Rost! Ammo momoqaldiroq guldurosi tinadi, qalblarni maftun etgan she'riyatning sadosi esa – abadiy!

Izzat SULTON

U o‘z davrining hakami va kuychisi, jarchi va faylasuf, u so’z sehrgari va uzlatga chekingan mutaffakir-darvesh. Abdulla Oripov menga XXI asrga qadam qo‘ygan davrimizning buyuk madaniy ahamiyatga molik ana shunday shoiri bo‘lib gavdalandi...

Chingiz AYTMATOV

Ilmiy-metodik adabiyotlarda ijodkorning o‘ziga xos uslubini o‘rgatish adabiy ta’limning muhim masalalaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Ayniqsa, A.Oripov kabi iste’dodli, betakror uslub egasi yaratgan badiiy olam namunalarini o‘rgatishda bu masalani chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Zotan, ijodkor uslubi uning tafakkur tarzi, ko‘ngil olami ruhiyati ifodasi sifatida asarlariga xos joziba va ta’sirchanlikni ta’minlaydi. Quyidagicha test olish mumkin.

1. Ayniqsa bahor paytlarida bu yerkarta yog‘in ko‘p tushar, ... ming xil o‘t-o‘lan, chuchmoma-yu qizg‘aldoqlar bilan, quyonto‘pig‘-u ismaloq bilan, karrag-u hazorisfand bilan, qo‘zigullar bilan qoplanar, atrof-tevarak jannatiy bir manzara kasb etardi. Ushbu tabiat manzaralari qaysi ijodkorning tarjimai xolida uchraydi?

A) Erkin Vohidov B) Uyg‘un C) Abdulla Oripov D) Oybek

2. “... Har holda so‘zlarni qofiyalashga ishqiboz bo‘lib qolganim esimda. Balki zerikkanimdan, balki zavqim toshib, nimadir yozgim kelaveradi. Fikr esa yo‘q. Yozmaslikning ham iloji yo‘q”. Ushbu jumlalar kimga tegishli?

A) Oybek B) Abdulla Oripov C) O.Yoqubov D) Ch.Aytmatov

3. 1974-1976- yillarda “Sharq yulduzi” oybitigida bo‘lim boshlig‘i bo‘lib ishlagan adib kim?

A) Xudoyberdi To‘xtaboyev B) Erkin Vohidov C) S.Ahmad D) Abdulla Oripov

4. Abdulla Oripovning birinchi marta respublika matbuotida bosilib chiqqan she’ri qaysi qatorda to‘g’ri berilgan?

A) “Qushcha” B) “Mitti yulduz” C) “Ko‘zlarim yo‘lingda” D) “Onajon”

5. “Ruhim”, “Xotirot”, “Yurtim shamoli” she’rlari muallifi qaysi qatorda berilgan?

- A) Erkin Vohidov B) G‘.G‘ulom C) Abdulla Oripov D) Cho‘lpon

Istiqlol davri o‘zbek adabiyotshunosligida ijodkor uslubida uning subyektiv jihatlari ko‘proq namoyon bo‘lishi ta’kidlanmoqda. Uslub izlarini biz badiiy tasvir vositalari yoki asarning tilidangina emas, balki bu vositalar orqali ifoda etilgan badiiy obrazlardan, yanada aniqrog’i, obrazlar mohiyatida yashiringan poetik ma’nolardan izlamog‘imiz darkor. Jahan pedagogikasi va adabiy ta’lim metodikasi uslub tushunchasiga psixologik nuqtayi nazardan ham yondoshmoq lozimligiga e’tibor qaratilmoqda.¹

Ijodkor ruhiyati alomatlari: uni hayajonga solgan go‘zallik yoki muayyan ixtirob tug‘dirgan tuyg‘ular ifodasi o‘ziga xos uslub tufayli joziba kasb etadi va kitobxonga yuqadi. Shu sababdan uslub o‘ziga xoslik, individuallik va betakrorlik hodisasi sifatida muayyan ijodkor hayoti va ijodini o‘rgatish jarayonida o‘quvchilar diqqatini tortish zarur bo‘lgan muhim masala hisoblanadi. «Uslub - san’atkorning o‘zidir», - degan ta’rifning ma’nosi serqirra. Uslub tasviriylik yoki faqat subyektiv his-tuyg‘ular jilvasini emas, obyektiv voqyealar silsilasiga munosabatni ham o‘z ichiga oladi. Bu o‘rinda obyektiv olam hodisalariga yoki narsa, predmetlarga shoir munosabatidan yuzaga keluvchi poetik kashfiyat nazarda tutiladi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari va akademik liseylar uchun o‘quv dasturiga kiritilgan A.Oripov ijodi namunalarini 5-sinfda «O‘zbekiston» she’rini, 9-sinfda «O‘zbekistonda kuz», «Kuz manzaralari» va boshqa tabiat lirkasi namunalarini, «Sohibqiron» dramatik dostonini o‘rganish; ta’limning keyingi bosqichlarida esa «Jannatga yo‘l» dostonini tahlil qilish jarayonida muallifning o‘ziga xos uslubi bilan mahoratini ko‘rsatuvchi xususiyatlarga o‘quvchilar e’tiborini qaratish muhim deb hisoblaymiz. Xo‘sh, A.Oripov kabi iste’dodli xalq shoirining o‘ziga xos uslubi nimalarda namoyon bo‘ladi? U yaratgan poetik obrazlarning betakrorligida yoki tasvirning serma’noligi, salmoqdorligi, poetik umumlashmalarining ta’sirchanligidami? Bu kabi muammoli savollarga shoir ijodi namunalari tahlili orqali javob olish mumkin.

Jamiyat taraqqiyotida har bir avlod o‘zidan oldingi avloddan ma’lum tomonlari bilan ozmi-ko‘pmi farq qiladi. Ayni vaqtda keyingi avlod avvalgisining davomidir. Lekin insoniyat uchun eng muqaddas bo‘lgan vatan, erk, haqiqat, ezgulik, go‘zallik tuyg’usi hamisha tabarruk an’nana sifatida avloddan avlodga ko‘chaveradi. Har bir davrda har bir avlod ana shu muqaddas an’analarga o‘z ishlari, so‘zlari, e’tiqodlari, fikrlari bilan sodiq qoladi. SHu ma’noda, aytish mumkinki, zamonaviylik ham tarixiy kategoriya. Bugungi kunimiz – kelajak uchun tarix. Sehrli so‘z san’ati bugungi kunlarimiz va davr nafasini o‘z bag’riga muhrlab, ulardan boqiylikka daxldor mazmun topadi.

Kelajak avlod poetik so‘zda mujassamlashtirilgan ijtimoiy-siyosiy voqelikdan, xalq hayoti va taqdiridan, dardi-tashvishi va sevinchlaridan voqif topadi. Avlodlar silsilasida o‘z hayoti, taqdiri va izlanishlari o‘rtasidagi bog’liqlikni ko‘radi. Maktabda adabiyot o‘qitishning vazifalaridan biri asar ustida ishslash maboynida, uni o‘zlashtirish va his etishda o‘quvchida bilim hamda ehtiros birligini ta’minlashdan iborat. Asar ustida ishslash jarayonida o‘quvchi qahramonning ichki dunyosi, shaxsi va xarakteri uning hatti-harakatlari, fikrlari, nutqida namoyon bo‘lishini o‘rganadi. SHunday belgilarga qarab odamni baholashga odatlanadi. Eng muhimi, asar qahramoni o‘quvchilar tomonidan hamisha tirik inson sifatida his qilinishi kerak. Butun fojia shundaki, o‘quvchilar, ba’zan o‘qituvchilar ham asar ustida ishslash davomida adabiy qahramonning tirik odamligini unutib qo‘yadilar. Asar tahlili o‘quvchining adabiy qahramonni ko‘p qirrali, jonli inson sifatida qabul qilishiga ko‘maklashishi kerak.

2.2.Abdulla Oripovning “Sohibqiron” asarini o‘rgatishning o‘ziga xosligi

O‘tayotgan asrimizning O‘zbekiston uchun eng muhim voqeasi, shubhasiz, mamlakatimizning Mustaqillikka erishganligi bo‘ldi. Mustaqillik-bu, boshqacharoq ta’riflaydigan bo‘lsak, ozodlik demak. Tarixni eslang-qanchadan-qancha odamlar yurtimiz ozodligi uchun kurashdi, ularning ko‘plari-Fitrat, Qodiriy... hammasini sanab sanog‘iga etish qiyin, shu yo‘lda jonlarini fido qildilar. Saxovatli yerda yashovchi qadimiylar xalq nihoyat erkin yashay boshladi va o‘z taqdirini o‘zi belgilamoqdai.

XX asrning so‘nggi choragi Abdulla Oripov she’riyatining markazida milliy ma’naviy qadriyat sohibqiron Amir Temur turadi. Amir Temur ko‘zlagan oljanob maqsadlar:adolatli jamiyat, madaniy ma’rifiy ravnaq, moddiy farovonlik, tinch-totuvlik va boshqa ezgu niyatlarining mangu qaror topishi uchun, mamlakatda davlat siyosati darajasidagi hoxish-irodadidan tashqari, keng ko‘lamlarda, har tomonlama va chuqur ildiz otgan, pishiq-puxta, mustahkam, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-siyosiy zamin mavjud bo‘lmog‘i lozim.

Amir Temur shaxsi, uning faoliyatiga baho berishda hamda uning saboqlaridan foydalanishda sohibqiron o‘zi yashagan murakkab davrning o‘ziga xos ramzi ekanligini sira yoddan chiqarmaslik o‘ta muhimdir. Amir Temur ibrati, sabog‘i bizni mushtaraklikka, yakdillikka, sohibqiron o‘z zamonasida oljanob niyatlariga yetish yo‘lida tayana olmagan yoki o’sha paytda uning tayana olishi mumkin bo‘lмаган zaminlarni vujudga keltirish asosida umrboqiy mustaqil O‘zbekistonni bunyod etishga da’vat qilmoqdaz.

O‘quvchilar ma’lum ma’noda dunyoni teranroq anglay boshlaydi. Shu bois ham darslikdan shoirning yirik mavzudagi “Sohibqiron” dostoni o‘rin olgan.

Iste’dodli shoir Abdulla Oripov adabiyotimizga yangicha badiiy tafakkur yo‘sinlarini olib kirgan ijodkorlardan biri.U inson qalbidagi murkkab ziddiyatlarni, haq-nohaqliklarni,adolat va razolatni o‘ziga xos betakror kuylayotgan yetuk shoirdir. Shoirning «Sohibqiron» she’riy dramasi Amir Temurning 660 yilligi munosabati bilan yaratilgan bo‘lib, asar mustaqillik adabiyoti xazinasiga bebahो mulk bo‘lib qo‘shildi.

Asarda tasvirlanishicha, yoshligidan adolat uchun kurashishni o‘ziga maqsad va maslak qilib olgan Amir Temur ezgulik yo‘lida jahoning qariyb yarmini zabt etib, Buyuk Turon sultanatini barpo etadi. Orttirgan behisob boyliklarini faqat adolat uchun, yaxshi ishlar uchun sarflaydi, el-yurtni obod qildiradi, yangi shahar va qishloqlar, masjid-madrasalar bunyod ettiradi, yangi yo‘llar ochdirib, kanallar qazdirib, cho‘lda bog’u rog’lar yaratadi.

Dramada Sohibqironning orzu-o‘ylari, intilishlari, jamiyatdagi kurash, mamlakat va xalq oldidagi buyuk xizmatlari birin-ketin ochila boradi, natijada Amir Temurning buyuk va salobatli, jonli va tabiiy obrazi sahnaviy usullarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Asarda Amir Temur obrazi bilan birga Sulton Boyazid, Bibixonim, Amir Husayn, Ahmad YAssaviy kabi obrazlar ham realistik bo‘yoqlarda jonli va ishonarli qilib tasvirlangan.

Dramadagi har bir personaj xarakterining biron qirrasini bo‘rttirib ko‘rsatishda har bir detal asosiy vosita vazifasini bajargan. Masalan: Bibixonimning Amir Temurga bo‘lgan cheksiz hurmati quyidagi misralarda yorqin namoyon bo‘ladi:

Olam yuki qadar buyuk qudratingizni,

Kiprigimda ko‘targayman muhabbat bilan⁶.

Keltirilgan baytda *kiprig()* ko‘tarmoq iborasi yuksak darajada izzat-hurmat qilmoq ma’nosini ifodalaydi. Amir Temurning sartarosh bilan muloqoti va unga Sohibqiron o‘zining yuragidagi istak, dardini aytmoqchi ekanligini *ko‘ngil ochmoq* iborasi orqali bayon qiladi:

Har qandayin bandaga ham kerakdir sirdosh,

Senga ko‘ngil ochsam bo‘lar...⁷

Bu iboraga sinonim sifatida dramada yuragini to‘kmoq iborasi ham ishlatilgan:

Yuragimda tomchi-tomchi gaplar yig’ilmish,

Men ularni to‘kay derman Sizga, Sizlarga

Sen ularga yaqinroq kel, Mirzo Ulug’bek.⁸

⁶ Абдулла Орипов. Сохабқирон. Т.,Faфур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. 52-б

Muallif dramada *o'lim* ma'nosini anglatuvchi umri *barham topmoq mangu orom olmoq* – *kuni bitmoq* – *boqiy dunyoga ketmoq* – *qazo qilmoq* – *jon bermoq* kabi frazeologik sinonimlardan o'rinali foydalangan:

Mana bugun barham topdi ikkita umr,
Ikkisi ham bir onadan tug'ilgan edi.

Biri, singil, biri aka – izma-iz ketdi.

Agar qo'yib yuborsalar ko'zimni bog'lab,
Hech adashmay shahri Keshni topib kelardim.

U joydadir ota-onamni hoki poylari,
Mangu orom olar unda o'g'lim Jahongir.

Allaqachon ketgan ul zot boqiy dunyoga,
Olam bo'y lab kezib yurar ruhlar lekin.

SHuningdek, asarda hayot pardasini kotarmoq, ikki o't orasida jizg'anak bo'lmoq, ajal bekinmichoq o'ynar, og'iz(i)ni hidlab ko'rmoq, Azroil qilichini qayramoq, zuvalasini pishitmoq kabi ohori to'kilmagan iboralar qayd etilgan:

Xo'sh, ularning halokati men tufaylimi?

Agar hayot pardasini ko'tarib boqsang

Orasida ikki holat ko'ringay ro'y-rost:

Biri Rahmon qiyofasi,

Unisi-shayton.

Nega ko'pdir nayrangbozu kazzob kimsalar?

Nega bosgan yer yuzini buncha ko'p illat?

Men zamini tozalashim kerak ulardan.

Ajal mudom bekinmichoq o'ynar biz bilan.

Men o'limdan qo'rqamanmi?

Ko'p chigal savol...

Vaqti kelib, qilichini qayrab Azroyil

Saltanatim tepasida paydo bo'lgan chog',

⁷ Абдулла Орипов. Соҳибқирон. Т., Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996 8-б

⁸ Абдулла Орипов. Соҳибқирон. Т., Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996 134-б

Maqbaramni ko'rib, ortga qaytib ketgaydir:
Allaqachon buning jonin olibman-ku, deb.
SHoir dramada iboralar bilan birga so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash va tasviriy vositalardan ham mahorat bilan foydalangan:
Foniy dunyo Iskandarga vafo qildim?
Yoki vafo qilganmidi CHingizxonga u?
Vujudimni mudhish og'riq tamom chulg'adi,
Borib yetidi u miyaning tubiga qadar.
G'oyat aniq ko'rinoqda umrning shomi.⁹
Misradagi umrning shomi birikmasida so'zlar ko'chma ma'noda qo'llanib, so'z ma'nosini metafora yo'li bilan ko'chgan. Asarda Amir Temur tilidan Bibixonimning aziz, mo'tabar, olajanobligi ko'chma ma'nodagi so'zlar bilan shunday ta'riflanadi:
Saltanatni oltin uzuk desam men agar,
Uning oliv bezagi – Siz,
Yoqut ko'zi Siz.
SHuningdek dramada o'xshatish:
Afsuski, men shamshir bilan do'st
bo'ldim ko'proq,
Mash'alaga o'zin urgan parvonalardek.
Kuyib ketdi qancha odam gunoh-begunoh
Inshoollo, yuvgaydirman, dog'larim bo'lsa...¹⁰
Antonim:
Men g'olibmen!
Ayni chog'da mag'lubdirmen ham.
Qulluq, Hazrat!
Menga zafar tilang, yaxshisi,
Gadolik ham qismat erur, shohlik ham qismat.

⁹ Абдулла Орипов. Сохибкирон. Т., Faafur Fulom nomidagi Adabiyet va san'yat nashriyoti, 1996. 135-б

¹⁰ Абдулла Орипов. Сохибкирон. Т., Faafur Fulom nomidagi Adabiyet va san'yat nashriyoti, 1996 105-б.

Sinonim:

Muborakbod etmoq uchun hazratimizni, Yaqin-yiroq o'lkalardan mehmonlar kelmish.

Olampanoh, shahri Keshdan – ota makondan
Qutlagali qarindoshlar tashrif buyurmish,¹¹
kabi uslubiy vositalarni ham shoir ustalik bilan qo'llagan.

Drama so'ngida Sohibqiron umr bo'yi qilgan savobu gunohlarini sarhisob etib, shunday deydi:

Tinsiz jangu jadal bilan o'tdi hayotim,
Balki qancha umrlarga zomin bo'lganman.
Oxiratda etagimdan tutmasmi ular?¹²

Xullas, drama tili sodda, aniq, qisqa va lo'nda bo'lib, unda chuqur mazmunli va obrazli baytlar ko'p va ular chuqur hayotiyligi, falsafiy teranligi, jozibadorligi, shoirona fikr-mushohadalarga boyligi bilan ibratlidir¹³.

Abdulla Oripovning «Sohibqiron» dramasi mакtab, litsey, kollejlarda o'рганилмоқда. О'қитувчи о'кувчиларга бу асар mustaqillik davri o'zbek adabiyotining yirik namunalaridan biri ekanligi, asarning syujeti, kompozisiyasi haqida ma'lumot berarkan, uning til xususiyatlarini ham o'кувчilar ongiga chuqur singdirish lozim. SHunday paytda dramada qo'llanilgan frazeologizmlar, shakldosh, ma'nodosh, zid ma'noli so'zlarning uslubiy xususiyatlarini dars jarayonida yuqorida gidek, asardan olingan misollar asosida ko'rsatish o'zbek adabiy tilining tasviriy vositalar haqida boy ma'lumotlar beradi.

Ma'lumki, Abdulla Oripov qadim an'analarimizni yaxshi o'rgangan, ulardan puxta oziqlangan san'atkor. Abdulla Oripovga ma'naviy-ruhiy madad va ilhom bag'ishlagan manbalar faqat Yassaviy, Navoiy, Bobur yoki Mashrab kabi buyuk daholarning meroslari bilan cheklanmaydi.

¹¹ Абдулла Орипов. Соҳибқирон. Т., Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. 109-б

¹² Абдулла Орипов. Соҳибқирон. Т., Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. 125-б.

¹³ Тил ва адабиёт журнали. 2002 й. 4-сон. 59-63 б.

«Xalq og'zaki ijodiga bepisandlik adabiyotdan yiroqlikdir»¹⁴¹³ Bu Abdulla Oripovning qat'iy xulosasi. CHunki, u, birinchidan katta adabiyot dargohiga tomon odim tashlamasdan avval xalq og'zaki ijodiyotiga nisbatan so'nmas mehr va zavq paydo qilgan. Ikkinchidan, eng go'zal va ta'sirli obrazli tasvirlarni bo'lajak shoir dastlab xalq og'zaki she'riyatini namunalarida uchratgan. «Onam tabiatan g'oyat ta'sirchan ayol edi», - deya xotirlaydi. A. Oripov – o'choq boshidami, tandir yonidami ish bilan mashg'ul chog'larida qadimiylar mag'zun baytlarni takrorlashlari hanuzgacha esimdan chiqmaydi:

Gulira'noning tagida yuvma sochingni, yuvma sochingni,
SHahlo ko'zingdan to'kma yoshingni, to'kma yoshingni
SHahlo ko'zingdan to'ksang yoshingni, to'ksang yoshingni,
Olarman-da ketarman yolg'iz boshimni, yolg'iz boshimni¹⁵¹⁴.

SHoir boshqa bir o'rinda esa xalq she'riyatiga xos tabiiylik quymalik va obrazlilik xususida so'zlaydi. Folklor asarlarining Abdulla Oripov ijodiyotiga ko'rsatgan ta'siri va bu ta'sirning shakllarini yoritish maxsus o'rganishni talab qiladigan mavzu.

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan keyin, 1995 yilda bitilgan "Sohibqiron" she'riy dramasi shoir ijodida ham, adabiyotimiz rivojida ham o'ziga xos o'rinda turadi.

Bu davrga kelib nihoyat ijodkor ahli uchun ham har qanday "izm"larda holi chinakam erkin ijod davri boshlandi. Mustaqillik, istiqlol bergen ne'mat tarixda o'tgan buyuk siymolarimiz, chunonchi sohibqiron Amir Temur to'g'risidagi bor haqiqatni aytish imkoniyatini berdi.

Garchand shoir tarixiy voqealarga asoslanib, "adolat va dini islom himoyasi deb yer yuzini fath aylagan, tartib o'rnatgan" buyuk ajdodimizning realistik, haqqoniy obrazini yaratish niyatida o'tmish tariximizga murojaat qilgan bo'lsa ham asar teran zamonaviy ahamiyat kasb etgan. Shoirning "Sohibqiron" asarimni o'tmishga boqib, bugun uchun yozganman", degan so'zlarida katta ma'no bor.

¹⁴ А. Орипов. Танланган асарлар. 4-том. 74-6

¹⁵ Ўша китоб, 140-б.

Buyuk jahongirning quyidagi so'zlari huquqiy, insonparvar demokratik jamiyat qurishga, O'zbekistonni dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatoriga olib chiqishga ahd qilgan biz zamondoshlarga qaratilgandek:

*Buyuk davlat barpo etdim,
Tangriga shukr,
Zolimlarning taarruzli qo'lllarini men
Mazlumlarning etagidan yulqib tashladim.
Maslak ila tariqatni himoya aylab,
Mone' bo'ldim imonsizlik, zo'ravonlikka.
Siz millatning dardlariga darmon bo'lingiz,
Yo'qsullarni aslo boylar zulmiga bermang.
Orangizga sira-sira tushmasin nifoq,
Umr bo'yi hazar qiling munofiqlardan,
Bolalarim, xoinlardan bo'ling ehtiyot,
Inson zoti ko'p narsaga chidaydi, ammo
Gar adolat paymol bo'lsa - toqat qilolmas.
Adolat va ozodlikni muqaddas biling.
Yo'l doshingiz bo'lsin doim aqlu tajriba,
Har kimlarning qutqusiga daf'atan uchmang...
Toju taxtni mendek uzoq saqlay desangiz,
Qilichingiz o'ylab cheking, bo'ling hamjihat.
Shunqorlarim, adolatni dastur qilingiz,
Eng avvalo, Vatan ila, Millatni asrang.*

Drama Amir Temur hayotining so'nggi yillari tasviri orqali "kuch - Adolatdadir" degan aqidani o'ziga shior qilib olib tarqoq uluslarni birlashtirib buyuk davlat tuzgan, qadami yetgan yerda bunyodkorlik ishlari bilan band bo'lgan, harbiy sarkardalik bobida bebahoheros qoldirgan, elsevar, yurtning halovati, shoni, shavkat yo'lida oromidan kechgan buyuk insonning teran obrazi yaratib berilganligi bilan qimmatlidir. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda xalqimiz azaldan yuksak qadrlab keladigan hamma narsadan ustun qo'yadigan adolat

tuyg‘usini hayotimizda yanada keng qaror toptirishni biz birinchi darajali vazifamiz, deb hisoblaymiz.”¹⁶ Quyidagi savollar asosida darsni mustahkamlash kerak.

1. Temurning biror yurtga qilinadigan yurishga uch-to‘rt yil oldin tayyorgarlik ko‘rish kerakligi borasidagi o‘gitini sharhlang.
2. Asardan Amir Temurning harbiy hiylalar borasidagi ustaligi aks etgan o‘rinlarni topib, sharhlang.
3. Sohibqironning: “*O‘z-o‘ziga qanday hukm chiqarmish Sulton?*” — degan so‘rog‘i tagidagi ma’noni anglating.
4. Boyazidning xati Amir Temurga qanday ta’sir qilganini tushuntiring.
5. “*Men — Temurman! Oriyat ham bor-ku dunyoda. Yetar, endi!..*” tarzidagi qaroriga asoslanib, jahongir shaxsiyatiga baho bering.
6. Temurbekning yomonlarni insof sari “kaltak bilan haydash” haqidagi to‘xtamiga munosabat bildiring.
7. Amir Temurning: “*Bizning uchun ulkan zamin shatranj taxtasi*”, — degan iqrorida sizningcha afsus ko‘pmi, iftixor?
8. Sohibqironning shaxmat taxtasidagi o‘yin va maydondagi jangni birday boshqara olgani sababini izohlashga urining.
9. “*Ruhiyatim amri bilan bir gap aytaman: Hech bir shohning boshiga bu kulfat tushmasin*”, — degan Temur shaxsini tavsiflang.

“Sohibqiron” dramasi asosida test savollari beriladi.

1. Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramatik dostonida Temur huzuriga Boyazid tomonidan yuborilgan choparning ismi to‘g‘ri keltirilgan qatorni toping.
A) Sulton Murod B) Alovuddin C) Sulton Shabli D) Sulton Muhammad
2. Xo‘sish, men-chi, men?! Axir men ham asli yolg‘izman,
Bugundanu keljakdan malomat bilan
Minglab ko‘zlar tikiladi bitta o‘zimga
Chunki mening qismatimga janglar yozilgan. Ushbu misralar qaysi asar qahramoniga tegishli?
A) H.Olimjon, “Muqanna” Muqanna B) M.Shayxzoda, “Mirzo Ulug‘bek” Ulug‘bek C) Abdulla Oripov, “Sohibqiron” Temur D) O.Yoqubov, “Ulugbek xazinasi” Ulug‘bek
3. Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasida Temurning o‘z dushmanlari gunohini ham kechira oladigan shaxs ekanligi qaysi obraz orqali yoritilgan?
A) Boyazid B) Amir Husayn C) Qosimbek D) Hofiz Sheroyziy

¹⁶ Mirziyoev.Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.: “O‘zbekiston” 2017 yil. 592 bet.

4. “Sohibqiron” dramasida Temurning islomiy tartiblar o‘rnatish,adolatni qaror toptirish uchun qon to‘kkani haqida fikr mulohazalar qaysi obraz bilan suhbat asosida ochiladi?

A) Bibixonim B) Shayxulislom C) Alovuddin D) Yassaviy

5. “Niyat qancha jozibali bo‘lsa ham,

Temur, qilich bilan murod xosil qilmog‘i gumon”. Ushbu jumlalar “Sohibqiron” dramasidagi qaysi obraz tilidan aytilgan?

A) muallif tilidan B) Yassaviy tilidan C) Boyazid D) Shayxulislom

6. “Sohibqiron” dramasida muallif o‘z nuqtai nazarini, dunyoda bandi tomonidan kuch bilan adolat o‘rnatish shubhali ekanligini qaysi obraz tilidan bayon qiladi?

A) A.Temur B) Alovuddin C) Hofiz Sheroziy D) Yassaviy

“Sohibqiron” asari to‘g‘risida

1. Amir Temur tajribali davlat arbobi sifatida davlat yaxlitligini tamin etuvchi narsalar deb nimalarni sanab o‘tadi?

A) mo‘l xazina B) yagona shoh C) yengilmas lashkar D) barchasi

2. Amir Temurning jahongirlik tabiatni nimalarda namoyon bo‘ladi?

A) xalqni bir shoh boshqarsin degan fikrida B) sabr qanoatida C) davlatni idora qilish usulida D) barchasi

3. “Hukmdorlar seva turub fuqoralarni

Umid hamda qo‘rquv ichra saqlashi darkor” “Sohibqiron” dramasidan keltirilgan ushbu satrlar kimning tilidan aytilgan?

A) Boyazid B) Husayn C) Temur D) Shohruh

4. Abdulla Oripov Amir Temur obrazini qanday tasvirlaydi?

A) o‘z yo‘lini to‘g‘ri yo noto‘g‘ri ekanini anglashga urinadigan inson sifatida B) har bir qadamini o‘ylab bosadigan inson sifatida C) xalqiga mehribon siyosatchi sifatida D) barchasi

5. “Sohibqiron” dramasining eng tasirli lavhalaridan biri...

A) Boyazid va Temur suhbatni B) jang manzaralari C) Temurning Ahmad Yassaviy bilan uchrashuvlari D) barchasi

O‘quvchilarni badiiy asar bilan tanishtirish dastlab sinfda o‘qish bilan boshlanadi. Sinfda badiiy asarni ifodali o‘qish o‘quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalashda eng muhim va ta’sirchan metoddir. O‘quvchilarda ifodali o‘qish malakasini shakllantirish adabiyot o‘qituvchisi oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Negaki, “faqat san’atkorona o‘qish shoirlar haqida tushuncha hosil qiladi”. Shu sababli bu vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘qituvchining o‘zi ifodali o‘qish qonun – qoidalari, texnikasini bilib olishi kerak. Shundagina u o‘quvchilarning ifodali o‘qish san’atini puxta egallab olishlariga, badiiy asar haqida mustaqil fikr yuritish, tahlil qilish va to‘g‘ri baholash malakalarini egallashlariga erishadi. O‘qituvchi ifodali o‘qishni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning ona tili darslarida olgan bilimlardan foydalanadi. Ma’lumki, o‘quvchilar ona tili darslarida orfoepik qoidalarni o‘zlashtiradilar. Bunday bilim ifodali o‘qishda tekstdagi intonatsiyani, urg‘uli so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etish, o‘z o‘rnida pauza qilish, emotsional, yoqimli ovozda vazn va qofiyalarga qarab to‘g‘ri o‘qishga yordam beradi. Ifodali o‘qish adabiy asarni tushunarli, ta’sirchan o‘qish demakdir. Bu o‘qish san’ati yod olingan materialni ifodali o‘qishni ham o‘z ichiga oladi, og‘zaki nutq bilan bog‘lanadi. “Sharh” so‘zi arabcha bo‘lib, izohlash, tafsir, tushuntirish, ma’no berish, talqin etish demakdir. Sharh adabiy tekstni talqin etuvchi filologik tadqiqotga xos usul hisoblanadi. Sharh adabiy asarni tadqiq qiluvchi adabiyotshunoslik, adabiyot nazariyasi, tarix, estetika, tilshunoslik fanlariga bog‘lanadi. Maktabda qo‘llanadigan tarixiy – adabiy sharhda asarning yaratilish tarixi, adabiyot tarixida tutgan o‘rni, asarda tasvirlangan voqealari va shaxslar haqida ma’lumot beriladi.

III BOB. TA’LIM BOSQICHLARI DASTUR VA DARSLIKLARIDA MAVZUNING BERILISHI

3.1. Mavzuni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha metodik tavsiyalar.....
51-55-mavzu. Abdulla Oripov. “Sarob” («O‘ylarim»), “Bahor”, “Genetika”, “Bahor kunlarida”, “Kuz manzaralari” she’rlari. “Sohibqiron” dramasi. (5 soat,)

Abdulla Oripovning hayot va ijod to‘g‘risida qisqacha ma’lumot. Abdulla Oripov – zamonaviy o‘zbek she’riyatining zabardast vakili. Shoir lirikasining o‘ziga xos xususiyatlari. She’rlaridagi kuchli ehtiros, tabiiylik, fikriy teranlik, poetik mukammallik. Badiiy talqinning pishiqligi. She’riy intonatsiyaning betakrorligi, shiddatkor ohang bilan sokin, osoyishta, samimi ruhning uyg‘unligi. Shakliy-uslubiy rang-baranglik (1soat).

“Sarob” she’rida shoir hayot yo‘li, ijodiy maslagi, shaxs va jamiyat munosabatlari masalalarining badiiy-lirk talqini. “Bahor kunlarida”, “Kuz manzaralari” she’rlarida tabiatga munosabat orqali lirk qahramon kayfiyatları, o‘ylarining, “Holat” she’rida esa, tabiiylikning o‘ziga xos yo‘sinda ifodalanishi. “Ketganlar yodi bu” she’rida shoir qalbining namoyon bo‘lishi. “Genetika” she’rida avlod-ajdod munosabatlarining serbo‘yoq va ta’sirchan ifodalanishi (2 soat).

“Sohibqiron”dramasida Amir Temur ruhiy holatining tasvirlanishi. Uning Amir Husayn, Sulton Boyazid, amirlar, o‘g‘illariga munosabatining ishonarli yoritilishi (2 soat) Abdulla Oripov. «Sarob» («O‘ylarim»), «Bahor», «Genetika», «Bahor kunlarida», «Kuz manzaralari» she’rlari. “Sohibqiron” (5 soat). Abdulla Oripovning hayot va ijod yo‘li to‘g‘risida ma’lumot. A.Oripov – hozirgi o‘zbek she’riyatining zabardast vakili. Shoir lirikasining o‘ziga xos xususiyatlari. She’rlaridagi kuchli ehtiros, tabiiylik, fikriy teranlik, poetik mukammallik. Badiiy talqinning pishiqligi. She’riy intonatsiyaning betakrorligi, shiddatkor ohang bilan sokin, osoyishta, samimi ruhning uyg‘unligi. Shakliy-uslubiy rang-baranglik. «Sarob» she’rida shoir hayot yo‘li, ijodiy maslagi, shaxs va jamiyat munosabatlari masalalarining badiiy-lirk talqini. «Bahor kunlarida», «Kuz manzaralari» she’rlarida tabiatga munosabat orqali lirk qahramon kayfiyatları, o‘ylarining, «Holat» she’rida esa tabiiylikning o‘ziga xos yo‘sinda ifodalanishi. «Ketganlar yodi bu» she’rida shoir qalbi jilolarining namoyon bo‘lishi.

«Genetika» she'rida avlod-ajdod munosabatlarining serbo'yoq va ta'sirchan ifodalaniishi. O'quvchilar sinfda va mustaqil o'qishlari, yod olishlari lozim bo'lgan asarlar: Shoir hayoti va ijodi haqida ma'lumot. Shoir ijodiga xos yetakchi xususiyatlar: haqqoniylik, samimiylik, dardlilik, falsafiylik, ifodaning aniqligi, poetik tilning jozibadorligi. Uning XX asr o'zbek she'riyatiga yangicha ohang, ruh va falsafiy salmoqdorlik kabi xislatlarni olib kirganligi. Shoirning "Munojotni tinglab", "Yurtim shamoli", "Birinchi muhabbatim", "Qo'riqxona", "Temir odam" kabi she'rlerida inson ruhiyatining rangli tovlanishlari, inson va zamon munosabatlaridagi murakkab muammolarning liro-falsafiy talqin etilishi.

3.2. Dars ishlanma

Quyida A.Oripov hayoti va ijodi bo‘yicha noan’anaviy dars ishlanmasini ko‘rib chiqamiz **Darsning ta’limiy maqsadi** - Abdulla Oripovning “Genetika” va “Kuz manzaralari” she’ri orqali shoir ijod yo‘li to‘g‘risida bilimlarni o‘zlashtirish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Mavzu orqali o‘quvchilarda Vatanga muhabbat, qadriyatlarni ulug‘lash, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: O‘quvchilarda jamiyat taraqiyotiga hissa qo‘sish tuyg‘usini rivojlantirish.

O‘quv jarayonining mazmuni Badiiy so‘z qudrati, adabiyot, badiiy adabiyot,inson ruhiyati, shoir mahorati adabiyot, badiiy adabiyot,inson ruhiyati, shoir mahorati

O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi Uslub: Suhbat,og’zaki bayon, tushunchalar tahlili.

Shakl: guruhlarda ishslash, suhbat,munozara;

Vosita: adabiyot darsligi, adibning suratlari.

Nazorat: og’zaki nazorat,savol-javob

Baholash: 5 balli tizim asosida **Kutiladigan natijalar**

O‘quvchilarning Mustaqillik qanday ne’mat ekanligi haqidagi bilim va ko‘nikmalari rivojlanadi. Ular mustaqillikning qanday qo‘lga kiritilganligi va uning tagzamini qanday qo‘rilgani haqida ma’lumotga ega bo‘lishadi.

O‘qituvchi: Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishini, o‘quvchi faolligini oshiradi.O‘quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Bir darsda barcha o‘quvchi baholanadi.O‘quvchilar tomonidan darsni mustaqil o‘rganish va uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish,savol berish va savollarga javob berishga o‘rgatadi..

O‘quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka va guruh bo‘lib ishslashni o‘rganadilar,nutqi rivojlanadi. Qisqa vaqt ichida ko‘p ma’lumotga ega bo‘ladi. qo‘lga kiritilganligi va uning tagzamini qanday qurilgani haqida ma’lumotga ega bo‘lishadi.

O‘qituvchi: Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishini, o‘quvchi faolligini oshiradi.O‘quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Bir darsda barcha o‘quvchi baholanadi.O‘quvchilar tomonidan darsni mustaqil o‘rganish va uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish,savol berish va savollarga javob berishga o‘rgatadi..

O‘quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka va guruh bo‘lib ishlashni o‘rganadilar, nutqi rivojlanadi. Qisqa vaqt ichida ko‘p ma’lumotga ega bo‘ladi.

DARSNING BLOK - Dars bosqichlari Vaqt

SXEMASI №

1. Darsning tashkiliy 5 daqiqa qismi.
2. O‘tilgan mavzuni 6 daqiqa mustahkamlash
3. Yangi mavzuni 15 daqiqa yoritish
4. Mustahkamlash. 12 daqiqa
Darsni yakunlash.
5. Baholash 5 daqiqa
6. Uyga vazifa 2 daqiqa

DARSNING BORISHI

1. Tashkiliy qism: Sinf xonasiga kiraman. O‘quvchilar bilan salomlashaman va davomatni aniqlayman. Tozalikni tekshiraman. O‘quvchilarning diqqatini o‘zimga jalb qilaman. O‘quvchilarning O‘zbekiston Respublikasi davlat madhiyasini jonli ijro etishi bilan dars boshlanadi.

O‘quvchilarni dars maqsadi bilan tanishtirish

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, har kim oldin o‘z ismini aytadi, so‘ng ismining bosh harfiga mos fazilatlarni aytishi kerak. Masalan: Abdulla – a’lochi, Nasiba – nazokatli, Ulug‘bek – uddaburon va h. k.

Faollashtiruvchi savollar:

- 1.A. Oripov haqida qanday ma’lumotlarga egasiz?**
- 2. Shoirning qaysi she’rini sevib o‘qigansiz?**
- 3. Shoir ijodining o‘ziga xos xususiyati nimada?**

“KASKAD”- mantiqli fikr yuritish sxemasi

Yangi g'oyalarning kashf qilinshiga imkoniyat beradi. Fikrni analitik, ijodiy yondashgan holda bir tizimda faol rivojlantiradi.

1-topshiriq

O‘z fikringizni bildirib, uni asoslang:

She’riyatning jozibasi nimada?

2 - topshiriq

O‘z fikringizni bildirib, uni asoslang:

Lirik qahramonning xususiyatlari

O‘quvchilar topshiriq ustida ishlaydilar. So‘ng fikrlar xulosalanadi.

O‘qituvchi: Mavzudan kelib chiqqan quyidagi she’r bilan darsni davom ettiraman:

Yurtim, sening sha’ning dunyoga doston,

Yaralgansan zaminda tengsiz guliston,

O‘tmishi buyukdirsan tan olgan jahon

Qadim Turkim, Turonim- buyuk Turkiston

Istiqlol quyoshi porla, balqiyver,

Erking ko‘rolmaslar, g’amdan tishlar yer.

Boshing uzra baxt qushi aylaydi parvoz,

Har tong madhing yangrar xalqim jo‘rovoz.

2. Yangi mavzuni yoritish va guruhlarda ishlash.

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar! Mana bugun sizlar bilan adabiyot fanidan Abdulla Oripovning she’riyati bilan tanishamiz. Abdulla Oripov 1941- yil 21-martda Qashqadaryo viloyati Koson tumani Neko‘z qishlog’ida tug’ilgan. U 1958 yilda Toshkent Davlat Universiteti filologiya fakultetining jurnalistika bo‘limiga kirib, 1963 yilda tamomlagan. So‘ngra u 1963-74 yillar oralig’ida nashriyotda, 1974-80 yillarda “SHarq yulduzi”, “Gulxan” jurnallarida ishladi. Undan keyin O‘zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasida turli lavozimlarda faoliyat ko‘rsatdi. Abdulla Oripov qisqa vaqt davomida mualliflar huquqini himoya qilish qo‘mitasiga rahbarlik qildi. Hozirgi kunda shoir O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining rahbaridir.

Qishloqdagi ma'sumona ma'yus hayot, tabiat sokinligi, muhabbat kabi tuyg'ular uni shoirlikka undadi. Shoir ko'nglining ilhom bulog'i ochildi. Shoirning ilk she'rlari talabalik davrida matbuotda e'lon qilina boshladi. Abdulla Oripovning birinchi to'plami 1965 yilda "Mitti yulduz" nomi bilan bosilib chiqdi. Shoirning ba'zi ilk she'rlarida mavhumlik alomatlari, bahsli va ziddiyatli o'rinalar sezilardi. Biroq ularni g'oyaviy nuqson sifatida emas, balki o'sish qiyinchiliklari tarzida qabul qilish lozim. "Mitti yulduz" to'plami shoirning haqiqiy ijod yo'liga kirganligidan dalolat beruvchi kitob sifatida maydonga kelgan edi.

Abdulla Oripov bu to'plamga kiritilgan she'rlarida tabiat manzaralari tasviriga ko'proq o'rinni beradi. Masalan "Archa" she'rida shoir o'zining tuyg'ulari yuksak cho'qqiga ko'tarilganligini ko'rsatishga harakat qildi. Toshyo'nar usta nogahon archaning ustiga tosh tushirib yuboradi. Ammo archa bukilmaydi. Yillar o'tib, qaytib kelgan usta hayratdan qotib qoladi: archa toshni boshida ko'targancha gurkirab o'sib turardi... Haqiqatdan uzoq bo'lган bu voqeа tasviri bilan shoir nima demoqchi? Bu she'rda butun hayot haqiqati namoyon bo'ladi.

Dastlabki chog'larda Abdulla Oripov o'zining yashashdan kuzatgan maqsadlari va asosiy estetik prinsiplarini quyidagicha ifodalagan edi:

Men shoirman

Istasangiz shu.

O'zimniki erur shu sozim.

Birovlardan olmadim tuyg'u

O'zgaga ham bermam ovozim.

Shoir A.Oripov "Mitti yulduz" she'riy to'plamidan keyin yana bir necha kitoblar e'lon qildi: "Ko'zlarim yo'lingda" (1966), "Onajon" (1969), "CHashma", "Ruhim" (1971), "O'zbekiston" (1972), "Hayrat" (1974), "Yurtim shamoli" (1976), "Najot qal'asi" (1980), "Yillar armoni" (1984), "Ishonch ko'priklari" (1989), "Munojot" (1992), "Dunyo" (1995), "Haj daftari" (1995), "Saylanma" (1996) shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda Abdulla Oripovni butun mamlakat yaxshi biladi va uning asarlarini sevib o'qiydi. U osonlikcha ijodiy kamolotga erishmagan albatta. Zotan,

shoir Yoshligidanoq ijodiy ishga katta mas’uliyat bilan qaradi. Binobarin, ustoz A.Qahhor: “Abdullaning bitta xislati menga ma’qul. U faqat o‘zi ko‘rgan va o‘zi bilgan narsalarnigina yozadi”, - deb bejiz aytmagan. Buning ustiga, shoir asarga jilo va sayqal berishdan aslo erinmaydi. Chunki u she’riyatni vijdon ishi deb biladi. Shuning uchun ham u samimiy ixlos va mammuniyat bilan:

Boshin eggay hamisha

Ostonangda Abdullo,

Eng oliv baxtim mening,

Onajonim, she’riyat,

Topgan toj-taxtim mening,

Jonajonim she’riyat, -

deb kuylaydi.

Abdulla Oripov she’rlarida falsafiy teranlik bilan jo‘shqin lirizm uyg’unlashib ketgan. Uning “O‘zbekiston”, “Munojot”ni tinglab”, “Avlodlarga maktub”, “O‘ylarim”, “Bahor”, “Birinchi muhabbatim”, “Yuzma-yuz”, “Otello”, “Kuz”, “Saraton”, “Dengizga” va boshqa qator she’rlarida mana shu xususiyat yaqqol seziladi. Bu fusunkor va teran she’rlar o‘zbek milliy adabiyotining mumtoz namunalari bo‘lib, yuksak badiyligi, mantiqan kuchliligi, jo‘shqinligi, yoqimliligi va lirik tuyg’ularga boyligi bilan ajralib turadi:

Eshilib, to‘lg’onib ingranadi kuy,

Asrlar g’amini so‘ylar “Munojot”.

Kuyi shunday bo‘lsa, g’amning o‘ziga

Qanday chiday olgan ekan odamzod.

Ko‘rinadiki, Abdulla Oripov fikrlar va ehtiroslar shoirdir. Uning ijodiy qamrovi keng, fikri teran va mustaqil, badiiy mushohadalari kuchli, ehtirosi jo‘shqin, parvozi yuksak. U loqaydlikni bilmaydi. Ana shunga ko‘ra, shoir she’rlari jo‘shqinligi va lirik tuyg’ularga boyligi bilan o‘quvchilarni maftun etadi.

A.Oripov tarjimon sifatida A.Pushkin, T.G.Shevchenko, V.CHarens, N.Ganjaviy, Q.Quliev she’rlarini, Dantening “Illohiy komediya” asarini tarjima qildi.

O‘zbekiston Respublikasining madhiyasi muallifi A. Oripov millat ruhining timsoliga aylantirgan sifatlardan yana biri undagi obrazlarning teran xalqchil tomirlarga egaligi.

”Kuz manzaralari“ she’ri o‘qiladi, tahlil qilinadi.

BLITS- SO‘ROV

1. Kuzgi yaproqlar bilan shoir qalbidan to‘kilgan olov o‘rtasida qanday bog’liqlik bor deb o‘laysiz?
2. **“Shoxlarda mezonlar yaltirar xira, Poyida shivirlar mening kuylarim”** satrlari ma’nosini sharhlang.
3. Shoirning mezonlar haqida : **”Bu mening chavalgan, so‘ngsiz o‘ylarim“**, - deyishining hayotiy va badiiy asosini toping.

”Genetika“ she’rini o‘qituvchi ifodali o‘qydi va tahlil qilib boradi.

Guruhlarga topshiriqlar:

1-guruh.

She’rning 1-bandida ifoda etilgan shoir tuyg’ularini anglashga urining. Sizda ham ba’zan shunday o‘ylar bo’ladimi?

Fikrinfizni og’zaki bayon eting.

2-guruh

Shoirning bobolarga daxldorlik borasidagi qarashlari aks etgan bandlarni sinchiklab o‘qing. Avlodlar orasidagi davomiylik aks etgan bandlarni sharhlang.

3-guruh.

”Ohu bolasi bu- ohuday boqqan, Shervachchada esa sherning shiddati“ satrlari ma’nosi chuqurligi va ifoda tarzining go‘zalligini izohlang.

5. Darsni yakunlash.

6. Uyga vazifa: She’rlarni yod olish va ifodali aytib berish. 34

XULOSA

Ma'lumki, XX asr so'nggi choragi va XXI asr bo'sag'asi dastlabki o'n yilligi o'zbek adabiyotida milliy-ma'naviy qadriyatlar uyg'unligi va unda aks etgan milliy uyg'onish haqidagi fikr va g'oyalar haqida shoir Abdulla Oripov she'riyatining milliy mustaqillikka qo'shgan hissasi, ko'lami, salmog'i, ahamiyati, muhimligi va dolzarbligini hisobga olib, uning ijodini o'rganish ta'lim bosqichlari dastur va rejalaridan o'rinn olganligi ma'lum.

XX asr 60-yillar oxiri va 70-yillar boshida ijod maydoniga endigina kirib kelayotgan yosh shoir Abdulla Oripov yuragi dastlab, ona Vatan, yurt, o'lka haqida yozsa, 80-va 90-yillarda hech ikkilanmasdan Vatan haqidagi betakror she'riyati bilan omma ongiga kirib bordi va mustaqillikning poydevorini yaratishga zamin bo'lgan "O'zbekiston", "Qarshi qo'shig'i", "Tilla baliqcha" kabi she'rlarini totalitar tuzum qilichini qayrab turgan, sobiq mafkura hukmron bo'lgan davrda hadiksiz, qo'rquvsiz o'z ovozi bilan milliy ma'naviyatimiz bo'lgan ajdodlar qadriyatini she'riyat orqali talqin etdi va shu ruhni xalq, jamiyat qalbiga singdira bildi.

Mustaqillik bizga erk va huquqimizni bergenligini, ona tilimizni qaytarib bergenligini, O'zbekiston degan mamlakat borligini dunyo tanib, tan olganligini, ajdodlar merosi tiklanganligini, istiqlol tufayli shahar va qishloqlar qayta qurilayotganligini, ajdodlardan qolgan ma'naviy merosga yana egalik qaytganligini, Vatan mustaqilligi, O'zbekiston fuqarosi erk va ozodligi abadiyligi uning uchun milliy-ma'naviy qadriyat ekanligi, endi istiqlolni asrab-avaylab kelgusi avlodlarga yetkazish bizning burchimiz ekanligini shoir ijodiy kuzatishlarida mammuniyat bilan qayd etadi.

Buni hozirgi davr o'quvchilar shuuriga yetkazish, ularda insoniylik, vatanparvarlik tuyg'ularini tarkib toptirish masalalarining metodik jihatlarini o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Mazkur ishimizda hozirgi o'quvchi – talabalar ulkan imkoniyatlar mamlakatida har tomonlama keng bilimlarga intilib yashayotganligi, yoshlardagi bunday intilish va shijoatni hisobga olgan holda o'quv adabiyotlari sifat va

samaradorligini uzluksiz ravishda takomillashtirib borish davr talabi hisoblanishi masalasidan kelib chiqib, yirik shoir va jamoat arbobi Abdulla Oripov asarlarini adabiyot darslarida o‘rganish masalasi ko‘rib o‘tildi.

Ishimizning dastlabki bobida o‘qituvchidan boshlang‘ich sinfda o‘tiladigan har bir darsda bolalarning ruhiy, jismoniy imkoniyatlarini inobatga olgan holda ularni mustaqil mulohaza yuritib, munosabat bildirishga undaydigan amaliy ishlarni bajarish talab qilinishi, 5-9-sinflarda o‘quvchining shu bosqichdag‘i intellektual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ish yuritishi lozimligi, bolaning har tomonlama yetuk bo‘lib kamol topishida adib asarlarining ham o‘rni muhim hisoblanishi masalasiga alohida e’tibor qaratildi.

Dasturda nazarda tutilgan masalalarning taqsimlanishi bolalarning yoshi va bilim hamda ko‘nikmalarni o‘zlashtirish darajasidan kelib chiqib turlicha ekanligi ko‘zga tashlanadi. Chinki umumta’lim maktab o‘quvchilari darjasini bilan, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari talabalari o‘rtasida bu borada muayyan farqlar bor. Bunda ijodkorni anglash, asarlari mazmunini teranroq his qilishda yozuvchining o‘zi haqida yozganlari, zamondoshlarining fikrlaridan keng foydalansa maqsadga muvofiq bo‘lishi. Bu jihatdan o‘qituvchiga adibning kitoblaridagi ma’lumotlar, olim va adiblarning u to‘g’risida bildirgan fikrlari yaqindan yordam berishi haqida ham shu bobda ayrim fikrlar bayon etildi.

Ma’lumki, 5-sinfda Abdulla Oripov ijodidan «O‘zbekiston» she’ri (2 soat). A. Oripov hayoti va ijodi haqida ma’lumot. «O‘zbekiston» qasidasida ona yurt o‘tmishining g‘oyat ta’sirli va millat tarixi bilan uyg‘un holda tasvirlanganligi.

Asarda buyuk ajdodlarni ulug’lashdagi samimiyat. Shoirning Vatanga bo‘lgan muhabbatining yorqin ifodalanishi. Qasidaning badiiy xususiyatlari kabi masalalarni o‘rganish nazarda tutiladi. Bunda o‘quvchilar sinfda va mustaqil o‘qishlari, yod olishlari lozim bo‘lgan asarlar sirasiga «O‘zbekiston» qasidasi ham kiritilgan. Shuningdek, **9-sinfda** shoirning «Sarob» («O‘ylarim»), «Bahor», «Genetika», «Bahor kunlarida», «Kuz manzaralari» she’rlari. “Sohibqiron” (5 soat). Abdulla Oripovning hayot va ijod yo‘li to‘g’risida ma’lumot. A.Oripov – hozirgi o‘zbek she’riyatining zabardast vakili. Shoir lirikasining o‘ziga xos

xususiyatlari. She’rlaridagi kuchli ehtiros, tabiiylik ,fikriy teranlik, poetik mukammallik. Badiiy talqinning pishiqligi. She’riy intonatsiyaning betakrorligi, shiddatkor ohang bilan sokin, osoyishta, samimiyluhning uyg‘unligi. Shakliy-uslubiy rang-baranglik.«Sarob» she’rida shoir hayot yo‘li, ijodiy maslagi, shaxs va jamiyat munosabatlari masalalarining badiiy-lirk talqini. «Bahor kunlarida»,«Kuz manzaralari» she’rlarida tabiatga munosabat orqali lirk qahramon kayfiyatları, o‘ylarining, «Holat» she’rida esa tabiiylikning o‘ziga xos yo‘sinda ifodalanishi. «Ketganlar yodi bu» she’rida shoir qalbi jilolarining namoyon bo‘lishi. «Genetika» she’rida avlod-ajdod munosabatlarining serbo’yoq va ta’sirchan ifodalanishi borasida o‘quvchilarda bilim va ko’nikma hosil qilish rejallashtirilgan hamda asarlaridan namunalar yod olinishi belgilangan. Ularning tarbiyaviy, badiiy-estetik ahamiyati ta’kidlandi. SHuningdek, yakunlovchi soatda o’qituvchi va o‘quvchi o’rtasidagi muloqotning metodik tomonlari xususida so‘z yuritildi. Bunda suhbat metodi asosida ish ko’rish bo'yicha ayrim tavsiyalar berildi. O’rganilayotgan asar janri shakl va mazmun birligi tushunchasidan kelib chiqib, nazaridan chetda qolmasligi aytib o’tildi.

Adabiyot o’qitishda turli usullarning dars jarayoniga olib kirilishi hozirgi davr talabidir. SHundan kelib chiqib, ishimizda interfaol usullarning adabiyot mavzularini o‘tishdagi ahamiyati haqida so‘z yuritildi. Zotan, ta’lim jarayonida interaktiv usullardan keng foydalanish o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialini chuqur o‘zlashtirish, ularda yangi bilimlarni egallashga intilish, ijodiy qobiliyat, olingan bilimlarga nisbatan tanqidiy fikrlash hamda amaliyotda qo’llash kabi bugungi kun uchun o‘ta muhim bo‘lgan ko’nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Bu masalaga Abdulla Oripovning “O‘zbekiston” qasidasida toxtalib o‘tishga harakat qilindi.

Hamkorlikda ishslash tamoyili ta’lim sifatini jahon standarti talablariga yaqinlashtiradi. Bunining uchun dars jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish zarur.

Shu o‘rinda ayrim takliflarni ham bildirib o‘tish maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Ma’lumki, dastur ham boshqa o‘quv-metodik adabiyotlar kabi doimo

takomillashtirib borilmog‘i lozim. Binobarin, yangi yaratiladigan dastur mavzulari tarkibida Abdulla Oripov ijodiga oid mavzular yanada kengroq aks etsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Eng asosiysi, mustaqillik davri adabiyoti, uning yorqin namunalari, shu davr adabiyotiga xos yetakchi tamoyillar haqida ham mavzular bo‘lishi davr talabi deb hisoblaymiz.

Kuzatishlardan ma’lum bo‘lishicha, o‘qituvchi quyidagilarga alohida e’tibor berishi, dars jarayonida unga amal qilishi lozim bo‘ladi:

Adabiyot o‘qitishning maqsadi, vazifalari va mazmuni adabiy ta’limning asosini tashkil etuvchi tushunchalar ekani. Maktabda adabiyot o‘qitishdan maqsad o‘quvchilarda ezgu ma’naviyat shakllantirishdan iboratligi.

Adabiy ta’limning vazifalari a) oddiy o‘quvchidan kitobxon o‘quvchi; b) kitobxon o‘quvchidan o‘qiganlarini anglaydigan o‘quvchi; v) anglaydigan o‘quvchidan tahlillay oladigan o‘quvchi; g) tahlil qiladigan o‘quvchidan muayyan asar haqidagi fikrini og‘zaki va yozma tarzda ifoda eta oladigan o‘quvchi tarbiyalash ekanligi. Adabiyot o‘qitishning mazmuni dastur, darslik, o‘quv va metodik qo‘llanmalar, ko‘rsatmali qurollarda ifoda etilishi. Adabiy-nazariy tushunchalar adabiy ta’limning ilmiy-falsafiy asosi ham ekanligi. Adabiyot nazariyasidan yetarlicha bilimga ega bo‘lmagan o‘quvchi badiiy adabiyotning nozikligini, badiiy so‘zning joziba qudratini tuya olmasligi.

Nazariy tushunchalarni o‘rgatish adabiyot darslaridagi asosiy ishga aylanib qolmasligi kerakligini anglash.

Badiiy tahlil a) ilmiy - filologik; b)o‘quv - didaktik singari ikki turga bo‘linishi. Didaktik tahlil tahlilchilar ishtirokiga ko‘ra: a)individual; b)guruhiy; v) ommaviy singari uch turga bo‘linishi. Adabiy ta’limda asarlar: 1) Yaxlit; 2) Obrazlar bo‘yicha; 3) Muammoli yo‘llarda tahlil qilinishi. O‘quv tahlilida adabiy turga xos xususiyatlarni hisobga olishning muhimligi. Lirik asarda ifodalangan tuyg‘uni his etish, undan ta’sirlanish uchun bola tasvirlanayotgan tuyg‘uni kechirishi kerakligi. Lirikani his qilish adabiyot darslarini o‘zlashtirishga emas, balki o‘quvchini o‘zga odam holatini tuyushga o‘rgatish uchun zarurligi. Dramatik asar tahlili yaxshi bo‘lishi uchun o‘quvchilarga drama nazariyasidan ma’lumot

berish lozim ekanligi. O‘quvchilar remarka, luqma, butaforiya, dekoratsiya, musiqa, mizanssena, sahna, ko‘rinish, pardalari, personaj singari atamalar anglatadigan tushunchalarni bilgandagina dramatik asarni qabul etishi mumkinligi.

Zamonaviy jamiyat o‘zining tez va chuqur o‘zgaruvchan tavsifiga ega bo‘lib, bunday o‘zgarishlar jamoatchilik tuzilmalari, jumladan, mustaqil davlatlar, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, demografik siyosat, urbanizatsiya jarayonlarida ko‘zga yaqqol tashlanmoqda. Ta’lim ham global umumhamjamiyat tuzilmasining alohida tarkibiy qismi sifatida jamiyatda bo‘layotgan barcha o‘zgarishlarni hisobga olishi, ana shu asosda o‘z tuzilishi va faoliyat mazmunini o‘zgartirishi zarur. Bugungi kunda ta’limning jamiyat rivojlanish sur’atlaridan ortda qolayotganligi, ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan texnologiyalarning zamonaviy talablarga to‘liq javob bermasligi haqidagi masala dunyo hamjamiyati tomonidan tez-tez e’tirof etilmoqda. CHunki ta’lim ham ijtimoiylashtirish vazifasini bajaruvchi sifatida jamiyatdagi o‘zgarishlar ortidan borishi hamda uning rivojlanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazishi kerak. Biroq jamiyat rivojlanishi va ta’lim tizimi o‘rtasidagi munosabat murakkab ko‘rinishga ega bo‘lib, yuqori darajadagi jo‘shqinlik bilan farqlanadi. Ta’lim barcha faol va sust o‘zgarishlar ta’sirini qabul qilavermaydi, jamiyatda bo‘layotgan voqealarga esa o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Ana shu nuqtai nazardan ta’limdagi o‘zgarishlar faqatgina natija sifatida emas, balki jamiyatning kelgusidagi o‘ziga xos rivojlanish shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev.Sh.Tanqidiy tahlil, Qa’tiy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.T.: “O‘zbekiston” 2017 yil.104 bet
2. Mirziyoev.Sh. Erkin va Farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston” 2017 yil.56 bet.
3. Mirziyoev.Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.: “O‘zbekiston” 2017 yil. 592 bet.
4. I.A. Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch. T.»O‘zbekiston». 2008. –173 b.
5. Karimov I. A. Adabiyotga e’tibor- ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. Toshkent, «O‘zbekiston», 2010. – 39 b.
6. 2017-2021 Harakatlar strategiyasi. T.: “O‘zbekiston” 2017 yil.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 sonli Farmoni. // “O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi” veb sayti – www.lex/uz.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta mahsus va kasbhunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda “Shoshilinch tibbiy yordam tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5313 sonli Farmoni // “O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi” veb-sayti- www.lex/uz.
9. Begimqulov D. Haqqa, haqiqatga tashna she’riyat. (So‘ng so‘z). Abdulla Oripov. Savob. – T.: Ma’naviyat, 1997. – 154 b.
- 10.. Oripov A. Adabiyot va zamon. Mustaqillik davri adabiyoti: Adabiy tanqidiy maqolalar, badilar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – 287 b.
11. Oripov A. Bedorlik. – T.: “Yozuvchi”, 1999. – 160 b.
12. Oripov A. Hikmat sadolari. – T., 1992. -156 b.

- 13.. Oripov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000. – 234 b.
14. Oripov A. Tanlangan asarlar. 4-jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2001. – 272 b.
15. Zunnunov A. va b. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T., 1992. – 214 b.
16. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi fanidan dasturiy qo‘llanma. – T., 1994. – 175 b.
17. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T., 2006. – 138 b.
18. To‘xliyev B., Isayeva Sh., Shermurodov T. Adabiyot. Akademik litseyning ikkinchi bosqich talabalari uchun. – Toshkent, 2012. – 429 b.
19. Shodiyev N. Yangi pedagogik texnologiyalar . – S., 2005. 126 b.
20. Shodiyev N. Yangi pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – S., 2007. 144 b.
21. Husanboyeva Q. Adabiy ta’limda mustaqil fikrlashga o‘rgatish asoslari. – T., 2003. – 138 b.
22. Qo‘shtonov M., Meli S. Abdulla Oripov. – T., “Ma’naviyat”, 2000. – 180 b.
23. Aytmatov Ch. Qutlov. //O‘zbekiston Adabiyoti va san’ati, 2001- yil, 23-mart.
24. Nazarov B. Mustaqillik davri she’riyati: tahlil va talqinlar. //O‘zbekiston Adabiyoti va san’ati, 2005, 22-aprel.
25. Sobirov Q. Xalqining yuragidagi shoir. //Yozuvchi, 2000, 25 -oktabr.
26. To‘xliyev B. “Men-shoirm...”. //O‘zbekiston Adabiyoti va san’ati, 2002, 22-mart
27. Hotamov G‘. Abadiyat nafasi. //Yozuvchi, 1998, 16-sentabr.
28. G.Yoqubov O. Shoir haqida so‘z. //O‘zbekiston Adabiyoti va san’ati, 1991-yil, 8-mart.
- 29.. www. Ziyo/ net
30. WWW. nuqf. intal.